

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

KOREYASHUNOSLIK FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Chon Sang Gukning «Bizning qanot» romanida shomonizm
e’tiqodining aks ettirilishi**

Bakalavr yo‘nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish(koreys tili)

Bajardi: Koreys-ingliz guruhi 4-kurs talabasi
Qutbiddinova Mohiraxon Faxriddin qizi

Ilmiy rahbar: f.f.d., dots. Saydazimova Umida Turaxanovna

TOSHKENT – 2019

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi:

Koreyashunoslik
fakulteti dekani
f.f.d., prof. Usmonova Sh.

« ____ » _____ 2019 y.

«Xorijiy Sharq mamlakatlari
adabiyoti» kafedراس mudiri
f.f.d. Muxitdinova D.Z.

« ____ » _____ 2019 y.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-bob. XX asr ikkinchi yarmi zamonaviy adabiyot rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va madaniy shartlari.....	6
1.1. XX asrning ikkinchi yarmi Koreyada zamonaviy adabiy olam.....	6
1.2. Zamonaviy koreys nasri rivojida Chon Sang Guk ijodining tutgan o‘rni.....	10
2-bob. Chon Sang Guk «Bizning qanot» («우리들의날개») romanining badiiy xususiyatlari.....	15
2.1. «Bizning qanot» («우리들의날개») romanida davr muhitining badiiy talqini..	15
2.2. Shomonlikning oilaviy munosabatlariga salbiy ta’siri masalalari.....	27
Xulosa va takliflar.....	43
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	46

KIRISH

Koreys adabiyoti barcha zamonlarda koreys xalqining ma'naviy izlanishlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. XX asrning 70-yillari zamonaviy koreys adabiyoti tarixi, o'sha davrda yozilgan asarlarning mazmuni va mavzusiga tub o'zgarishlar olib kirgan tarixiy voqealar tadqiqot uchun tanlangan mavzuning **dolzarbligini** belgilaydi.

Chon Sang Guk – hozirgi zamon koreys adabiyotining taniqli namoyandaligidan biri, mohir qalam sohibi. U o'zidan ulkan adabiy meros qoldirgan, adib yaratgan asarlar o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi va koreys badiiy madaniyati uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. O'zining hech kimnikiga o'xshamaydigan uslubi, jonli va xalqchil tili, mohirona tanlangan voqea-hodisalar foni va qahramonlarning fe'l-atvori, shuningdek, bayon uslubining qisqa va lo'ndaligi bilan Chon Sang Guk kitobxonlar e'tiborini o'ziga jalb etdi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi – XX asr ikkinchi yarmi Koreya ijtimoiy hayotining rivojlanishi nuqtai nazarida «Bizning qanot» («우리들의 날개») asarini tahlil qilish yo'li orqali Chon Sang Guk ijodidagi falsafiy motivlarni aniqlashdan iborat .

Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- XX asrning ikkinchi yarmi koreys nasrini mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy vaziyat nuqtai nazaridan tushunib yetish va baholash;
- Chon Sang Guk ijodining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish, adabiy merosining inson va hayot voqeligini tasvirlashdagi novatorlikni kuzatish;
- «Bizning qanot» («우리들의 날개») romanida «shaxs va jamiyat» rolining tasviri masalalarini ko'rib chiqish;
- shomonlikning xalq hayotiga ta'siri masalalarini o'rganish va koreys xalqi kundalik turmushidagi o'rnini aniqlash.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosini koreys adabiyoti muammolarini tadqiq etish bilan shug‘ul+langan rossiyalik sharqshunoslar M.F.Soldatova¹, I.V.Soy² asarlari, shuningdek milliy adabiyotni o‘rgangan taniqli koreyalik olimlar – Kim Yunsik³, Chan Sok⁴, Cho Donil⁵, Li Jonsuk⁶ va boshqalarning tadqiqotlari tashkil qildi. Shuningdek, XX asr koreys yozuvchilarining (1960–1970 yillar) 100 jildli «Koreys adabiyotidan tanlangan asarlar» («정통 한국문학 대계») to‘plamdan olingan «단편소설» (*tanpxyon sosol*) janrining saylanma asarlaridan, jumladan, Chon Sang Guk qalamiga mansub «Bizning qanot» («우리들의 날개») asaridan foydalanildi.

Tadqiqotning obykti hozirgi zamon koreys nasri «단편 소설» (*tanpxyon sosol*)dir. **Tadqiqotning predmetini**– Chon Sang Guk qalamiga mansub «Bizning qanot» («우리들의 날개») romani tashkil etadi.

Ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Mazkur ishning **ilmiy yangiligi** unda falsafiy motivlarni, globallashuv jarayonlari yuz berayotgan hozirgi dunyo sharoitida shaxs ma’naviy-ruhiy izlanishlarining o‘ziga xos jihatlarini yoritib berish vazifasi qo‘yilgani bilan belgilanadi.

Ishning amaliy ahamiyati shu bilan bog‘liqki, uning materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida hozirgi zamon koreys adabiyoti tarixi va nazariyasidan ma’ruzalar o‘qishda, «Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti (Koreya)», «Koreys nasri» fanlaridan seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, shuningdek, koreys tilidan dars berish amaliyotida foydalanilishi mumkin.

Ishning **tuzilishi** uning vazifalari va ularni hal etishning oldinma-ketinligi bilan belgilanadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

¹ Солдатова М.В. Становление национальной прозы в Корее первой четверти XX века // Дис. ... канд. филол. наук. – Владивосток: ДГУ, 2004.

²Цой И.В. Корейская проза 1920–1930 гг.– СПб., 2003.

³김윤식. 한국현대현실주의소설연구. – 서울, 1990.

⁴장석주. 20세기한국문학의탐험. – 서울.: // 시공사, 2007.

⁵조동일. 한국문학통사. – 서울.: // 지식산업사, 1989.

⁶이정숙. 한국현대소설연구. – 서울.: // 깊은샘, 1999.

Kirish qismida bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va ilmiy yangiligi asoslandi; tanlangan mavzuning o'rganilganlik darajasi ko'rib chiqildi; tadqiqotning obyekti, predmeti ko'rsatildi; ishning maqsad va vazifalari belgilandi; uning amaliy ahamiyati ochib berildi, ishda foydalanilgan manbalarga qisqacha tavsif berildi.

Birinchi bob – XX asrning ikkinchi yarmida Koreyada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar nuqtai nazaridan hozirgi zamon koreys adabiyotining shakllanish jarayoni tavsifi, Chon Sang Guk hayoti va ijodiy merosini o'rganishga bag'ishlangan.

Ikkinchi bob – Chon Sang Gukning «Bizning qanot» («우리들의 날개») asarida ko'tarilgan muammolar asar badiiy dunyosining tahliliga, personajlar tizimining tavsifiga, muallif tili va uslubining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga, shuningdek, yozuvchi o'z asarida ko'targan davr muhitining xalq hayotiga ta'siri masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Xulosada o'tkazilgan tadqiqot natijalari umumlashtirildi va asoslandi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida to'rt tilda, ya'ni koreys, ingliz, rus va o'zbek tillaridagi nazariy adabiyotlar, lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalar, koreysshunoslik masalalariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari keltirildi.

1-bob. XX ASR IKKINCHI YARMI ZAMONAVIY ADABIYOT RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA MADANIY SHARTLARI

1.1. XX asrning ikkinchi yarmi Koreyada zamonaviy adabiy olam

Koreya tarixidagi yangi davr yangi adabiyot, xususan, 1960-1970 yillar nasri mumtoz, oʻrta asrlar, yapon anneksiyasi davri, fuqarolar urushi davri adabiyotidan sezilarli darajada farq qildi. Yangi nasrning rivojlanishiga yevropalashuv jarayoni, gʻarb va rus adabiyotining faol tarqalishi, uning eng sara namunalari koreys tilida davriy nashrlarda, «Istiqlol», «Poytaxt gazetasi», «Sharqiy Osiyo axborotnomasi» gazetalarida, «Ijod», «Yoshlik» jurnallarida, «Gʻarb adabiyoti axborotnomasi»da chop etilishi kuchli taʼsir koʻrsatdi. Buning natijasida koreys kitobxonlari Gyote, Bayron, Shekspir, Zolya, Balzak, Mopassan, I.S.Turgenev, A.P.Chexov, L.N.Tolstoy, F.M.Dostoyevskiy va boshqa buyuk adiblarning asarlari bilan tanishish imkoniyatiga ega boʻldi.

Yangi nasrga xalqning maʼnaviy tafakkuridagi oʻzgarishlar, shu jumladan, xristianlarning bir million kishilik armiyasini tashkil etish uchun kompaniya faoliyati, taniqli buddist, romantik shoir Xan Yon Unning «Koreys buddizmining yangilanishi toʻgʻrisidagi masalaga doir» maqolasi va Li Gap boshchiligidagi «Shimoli-Gʻarbiy ilmiy jamiyat», Li Je boshchiligidagi «Janubi-Gʻarbiy ilmiy jamiyat», Kim Yunsik tomonidan taʼsis etilgan «Buyuk Koreya ilmiy jamiyati», «Yangilanish jamiyati» va boshqalar ham ancha kuchli taʼsir koʻrsatdi.

Yangi nasrning oʻziga xos xususiyatlari uning mazmunida ham, shaklida ham namoyon boʻldi. Yangi nasr mavzui mualliflarning vatanparvarligi, xalqchilligi bilan belgilandi. Ayni shu sababli mazkur davrda yaratilgan asarlarda

ijtimoiy ruh yetakchilik qildi. Ularda mualliflar davlat yuritayotgan siyosat oqibati, jabr-zulm hukm surayotgan sharoitlarda turli tabaqa vakillari – ishchilar, dehqonlar, ziyolilarning kundalik hayotiga sinchkovlik bilan nazar tashladilar, personajlarni qurshagan moddiy-maishiy muhitni aks ettirdilar, ijtimoiy va ma'naviy borliq uchun ayniqsa muhim bo'lgan omillar – muhabbat, oila, ish, o'qish, dindorlik, ma'naviyat to'g'risida so'z yuritdilar, oilaviy munosabatlardagi eskirgan an'analarni, feodalizm sarqitlarini qoraladilar.

Ayni shu sababli yangi nasrda quyidagi mavzular yetakchilik qildi: mamlakatdagi vayronagarchilik, xalq orasida ishsizlik, odamlarning bir-biriga loqaydligi, ertangi kunga ishonchsizlik; ma'naviy tubanlik, axloqiy buzuqlik; e'tiqodning noturg'unligi, shomolikning kuchayishi, ocharchilik va h.z. Qahramonlarning ma'naviy uyg'onishi, aqliy kamol topishi, ziyoga, ilmda koshiflikka intilishi asosiy mavzulardan biriga aylandi. Mazkur mavzularni yoritish ona vatanga chin muhabbat, o'z xalqiga hamdardlik ruhi bilan sug'orilgan edi.

Shuningdek, yangi nasrga xos xususiyatlar orasida quyidagilarni qayd etish mumkin: ijtimoiy kolliziyalarni ma'naviy-axloqiy nuqtai nazardan tahlil qilish, qahramon hayotidagi fojiali vaziyatlarni uning shaxsiy kechinmalari, hissiyotlari orqali tavsiflash; ichki monologlardan, tush motivlaridan foydalanishga asoslangan chuqur psixologizm; asar bayonida xatlardan, mayda detallar tasviri, interer tavsifidan, peyzajga chizgilardan foydalanish; publisistik ruh bilan yo'g'rilganlik; universalizmga intilish, intertekstuallik, reminissensiyalar, mazmunli imo-ishoralar.

1945 yili Koreya ozod bo'lganidan keyin milliy koreys adabiyotini tiklash ijodkor ziyolilarning bosh vazifasiga aylandi, ammo adabiy davralarda mamlakatdagi siyosiy vaziyat oqibati o'laroq parchalanish yuz beradi. «Yosh yozuvchilar tashkiloti» va «Koreya yozuvchilari ligasi»dagi mafkuraviy nifoq o'zining yuqori cho'qqisiga yetdi. «Yosh yozuvchilar tashkiloti»ning taniqli a'zosi Kim Donni o'zining «Sof adabiyotning milliy adabiyot sifatidagi ahamiyati» deb

nomlangan maqolasida milliy adabiyot, jahon adabiy jarayonining tarkibiy qismi sifatida, G'arb insonparvarlik an'alariga asoslanishi lozimligini ta'kidladi⁷. Ya'ni, Kim Donni va uning hamfikrlari nuqtai nazariga ko'ra, adabiyot siyosatga aralashishi yoki siyosiy kurashda qurolga aylanishi mumkin bo'lmagan. «Koreya yozuvchilari ligasi» vakillari esa, koreys adabiyoti xalq sinfiy mafkurasiga asoslanishi lozim, deb hisobladilar.

1960-1970-yillarda Koreya Respublikasi shiddat bilan rivojlana boshladi. Yangi texnologiyalar, baland imoratlar, sanoatlashish hamda iqtisodiy o'sish kuchaydi. Natijada inson qadri tushib ketdi, pul birinchi darajaga chiqdi. Tabaqalashish kundan-kunga kuchayib bordi. Siyosiy-ijtimoiy qonunlar jamiyatda o'zaro ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Bu voqealar adabiyot va san'atga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1960-1970-yillar davri yozuvchilari endi tinchlik, ozodlikni emas, xalq ichidagi muammo va insonlar o'rtasidagi rishtalar haqida asarlar yoza boshlashdi. 1973-yilning oktabr oyida yozuvchilar Kim Don Ri va Li Mun Gu tomonidan «Xalq adabiyoti»ga asos solindi. Bu adabiyotning vujudga kelishiga koreys adabiyoti assotsatsiyasi tomonidan «Oylik adabiyot» jurnalining joriy etilishi sabab bo'ldi. Avvaliga bu adabiyot milliy, aqidaparastlik hamda ijtimoiy taraqqiyotga qattiq ta'sir ko'rsatuvchi g'oyalar ilgari surilgani bois, qattiq tanqid ostiga olindi. Keyinchalik bu adabiyot «Koreys adabiyoti» deb o'zgartirildi. «Xalq adabiyoti» turkumidagi asarlar oylik jurnalda bosib chiqarildi. 1989-yildan boshlab esa har uch oyda chop etila boshladi. Oylik adabiyot hisoblangan «Xalq adabiyoti» o'zida ikki turdagi asarlarni mujassam etadi. «Xalq adabiyoti» yozuvchi va shoirlaridan Chve In Hun, Kim Jong Han, Li Chong Jun, Kim Su Yong hamda Shin Dong Yoblar ma'lum va mashhurdir.

1970-yillar adabiyotida mavzular ko'lami yanada kengaydi. Dehqonlar turmush tarzi, sanoatlashish va qora ishchilar hayoti, Koreya ikkiga bo'linganidan keyin sodir bo'lgan voqealar hamda millatchilik muammolari haqida asarlar

⁷ Солдато́ва М.В., Па́к К.А. Современная литература Кореи. – Владивосток, 2003. С.148.

yaratildi. 1970-80-yillar adabiyoti ko'plab muammoli asarlarni o'z ichiga oldi. Sanoatning yuqori tezlikda rivojlanishi natijasida ishchi kuchlarga talab kuchaydi. Sanoat boshqaruvchilari qora ishchilarning kuchidan foydalanib millionlab daromadga erishdilar. Lekin ularning hayotlarini sug'urta ham qilmay, ish haqini ham vaqtida bermay ko'plab adolatsizliklarga yo'l qo'yishdi.

Bu davrda Hvang Sog Yong, Li Mungu, Song Gi Suk, Choi Se Hi, Yun Hong Gil, Kim Von Il kabi yozuvchilar tanqidiy realizm hamda modernism yo'nalishida ijod qilishdi. Yozuvchi Hvang Sok Yong o'z asarlarida ijtimoiy muammolar, ijtimoiy kelishmovchiliklar, oddiy xalq hayotining qiyinchiliklari va qayg'ulari, Koreyaning bo'linishi va hozirgi tarixning qorong'u tomoni kabi ijtimoiy muammolar haqida ko'plab asarlar yozdi. Shuningdek, quyi tabaqa vakillari bo'lishiga qaramasdan, hayotga bo'lgan intilishi susaymagan xalqqa qarata yozilgan asarlardan biri «Sampoga yo'l» («포가는길»)dir. Ushbu asar realizmning yangi sahifasini ochib berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

1960-1970-yillar adabiyotida realizm, gumanizm va psixologik yo'nalishdagi asarlar yaratildi. Mazkur davr ijodkorlari jamiyatning bora-bora qabihlashib borayotganligidan kuyundilar. Jumladan, Hvang Sun Vonning «Qiyalikdagi daraxtlar» («나무들비탈에서다») asari bunga misol bo'la oladi. Mazkur asarda urushda qatnashgan yoshlar hayoti tasvirlangan. Chve In Hunning «Hiyobon» («광장»), Chon Gvang Yongning «Kapitan Li» («꺼삐딴리»), Pak Kyong Rining «Hokim va fermer» («시장과전장»), Kim Sing Okning «Seul: 1964-yil. Qish fasli» («서울 1964 년겨울») kabi asarlarida insoniylik, inson o'rtasida yo'qolib borayotgan mehr-oqibatni saqlab qolishga dav'at barilla yangradi.

Taniqli olim A.N.Veselovskiyning quyidagi fikri teran mazmun kasb etadi: «Adabiyot tarixi – bu ijtimoiy tafakkur tarixi, aniqroq aytganda, uning falsafiy, diniy, poetik va adabiy ifodasidir»⁸. Koreys adabiyotining shakllanishi va

⁸ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. С.52.

rivojlanishi mamlakat tarixi bilan, xalq ijtimoiy ongi, uning ijtimoiy-ma'naviy, grajdanlik intilishlari bilan uzviy bog'liq.

1.2. Zamonaviy koreys nasri rivojida Chon Sang Guk ijodining tutgan o'rni

Chon Sang Guk – mamlakat ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog'liq asosiy jarayonlarning realistik tasviri ustasi sifatida nom qozongan yozuvchi. Adib 1940-yil 24-martda Kangvondo provinsiyasining Hongchon shahrida tavallud topdi. Yozuvchining bolalik davri Koreya fuqarolar urushi davriga to'g'ri keldi. Bo'lajak yozuvchi 1960-yilda Kyonghe Universitetining Ona tili va adabiyot fakultetiga o'qishga kirdi. Koreys xalqini o'zining «Jala» («소나기») hikoyasi bilan larzaga solgan mashhur adib Hvang Sun Von sabab adabiyotga mehr qo'ygan hamda bu sohani o'rgangan. 1963-yilda universitetni tamomlab, yurtiga qaytgan Chon Sang Guk Chunchon litseyida o'qituvchi bo'lib faoliyat yuritdi. 1972-yilda fizika fakultetining professori Cho Byong Hvaning tavsiyasi bilan ishini Kyonghe litseyiga ko'chirdi hamda u yerda 1985-yilgacha o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Shu yili Kyonghe Universitetining «Zamonaviy adabiyot» mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga o'qishga kirdi.

1963-yilda universitetda o'qish davrida u o'zining «Hamroh» nomli hikoyasi bilan yosh adiblar tanlovida ishtirok etdi hamda «Kyonghe madaniyat mukofoti» sovrindori bo'ldi. Hikoya o'sha davrda yosh yozuvchilarni qo'llab-quvvatlovchi nashriyot «Choson Ilbo» gazetasida chop etildi. Shu tariqa Chon Sang Guk adabiyot olamiga qadam qo'ydi. 1964-yilda «Nur» nomli hikoyasi «Zamonaviy adabiyot» maqolalar to'plamida chop etilgach, yozuvchi tug'ilib o'sgan yurtiga qaytib keldi. 1974-yilda esa kitobxonlar e'tiboriga «Oqshomdan oldingi kecha»

nomli hikoyasini havola etdi. Shundan so'ng adib 10 yil mobaynida bitta ham asar yozmadi. Ammo bu o'tgan o'n yillik haqida yozuvchi shunday xotiralaydi:

«O'qituvchilik kasbi menga mos kasb bo'lsa-da, o'tayotgan har bir shodon kunimda yuragimning bir chetida bo'shliqni sezardim. Bu bo'shliq ortga tashlab qo'yilgan adabiyot ekanligini bilib tursam-da, o'zimni bilmaslikka olardim. Adabiyotdan yuz o'girsamda, adabiyot mendan yuz og'irmasligini anglab yetdim».

2001-yildan boshlab Kangvon Universitetida «Ona tili va adabiyot» fakultetida o'qituvchi bo'lib ishladi. 2002-yildan boshlab to hozirgi kunga qadar «Kim Yujong» mahalla raisi bo'lib ishlash bilan birga adabiy faoliyatini ham davom ettirdi. Chon Sang Guk koreys adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan yozuvchi Kim Yujongni juda ham hurmat qilgan hamda uni o'z ustoz deb bilgan. Ustozining nomini abadiyolashtirish maqsadida Chon Sang Guk o'zi raislik qilgan mahallada joylashgan dorixona, pochta va savdo markaziga ham ustoz yozuvchining nomini qo'yishga muvaffaq bo'lgan. O'zining har bir chiqishlari yoki maqolalarida Kim Yujong ismini tilga olmay qolmagan.

Ustoziga bo'lgan buyuk hurmati haqida «Seul» gazetasining muxbiri Jang Hyong U (장형우) shunday yozadi:

«Kim Yujong» mahallasiga qadam qo'yishim bilanoq o'zimni adabiyot olamiga tushib qolgan personajdek his qildim. Hamma yoqda yozuvchi Kim Yujong ismi yozilganligiga guvoh bo'ldim. Mahallaning obodligini ta'minlayotgan shaxsga minnatdorchilik bildirish maqsadida ushbu mahalla oqsoqoli, sevimli adibim Chon Sang Guk janoblarining uyi tomon yuzlandim. Ustoz meni yaxshi kutib oldi. Salom-alikdan so'ng, ularni savolga tutdim. Har galgidek, adib an'anani buzmasdan gapni ustoz Kim Yujongdan boshladi».

Yozuvchi har yili «Kim Yujong» mahallasida adabiy tadbirlar uyushtirib, yosh adabiyotshunoslarni qo'llab-quvvatlovchi tanlovlar o'tkazib keldi. Ko'plab yoshlarga bunday imkoniyatlar yaratishning o'zi oliyjanob ishdir. U bo'lajak yozuvchilar bilan haftada bir marta uchrashib, ularga adabiyot sirlarini o'rgatdi. Bu

esa yosh yozuvchilarga katta kuch bag'ishladi. Bu haqda adibning o'zi shunday yozadi:

«Meni izlab kelgan yosh yozuvchilar bilan suhbatlasha turib, men ham bular kabi yaxshi yoza olamanmi, deb o'ylab qolaman. Va ichimda men ham bular kabi yoza olaman, deb o'zimni ovutaman. Yozilishi kerak bo'lgan asarlarim borligidan xursand bo'lib ketaman. Ha aytgancha men hali bosh asarimni e'lon qilganimcha yo'q».

Hozirgi kunda o'zining amalga oshirayotgan ishlaridan zavqlanib, yozuvchi bosh asarini yozish uchun kuch to'plamoqda. Shu kunga qadar kitobxonlar e'tiboriga havola etgan asarlari qo'lma-qo'l bo'lib kelmoqda. O'lmas asarlari bilan har bir kitobxonning yuragiga kirib borgan Chon Sang Guk bugungi kunda eng mashhur yozuvchilar qatoridan o'rin olgan.

Yozuvchi dastlabki yozgan asarida taqlid so'zlardan mohirlik bilan foydalangan:

«So'z boyligim kamligini yashirish maqsadida taqlid so'zlardan foydalandim. Natijada yangi va ajoyib jumlar tug'ildi. Avvaliga kitobxonlarning tanqid toshlari ostida qolaman deb o'ylagan edim, baxtinga kitobxonlar asarni yaxshi qabul qilishdi».

Shuningdek, Chon Sang Guk fuqarolar urushi sabab bo'lingan Koreyada yaqinlarini yo'qotgan oilalarning g'am-anduhlarini chuqur yoritib beruvchi asarlar ham yaratdi. «Abening oilasi» («아베의가족») hikoyasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu asar 1979-yilda «Koreys adabiyoti» mukofoti bilan taqdirlangan bosh asarlardan biri. Asarning bosh mavzusi 6.25 urushidan aziyat chekkan bir oilaning taqdiri haqida. Asar Amerika fuqaroligini olgan Kim Jin Ho (김진호) tilidan bayon etilgan. Urush oqibatida ko'plab oilalar bir-biridan judo bo'lib, boshqa yurtlarga borib qolgan oilaning taqdiri, farzand dog'ida kasalmand bo'lib qolgan onaning qayg'usi hayratlanarli tarzda yoritib berilgan.

Adib o‘z o‘qituvchilik faoliyati va uzoq yillik kuzatuvlari natijasida mazkur yillarda ta’lim sohasidagi kamchiliklarni o‘zida aks ettirgan «Butning ko‘z yoshlari» («우상의눈물», 1980) asarini yaratdi. Asarda kollejdagi o‘qituvchilar faoliyati, qoloq o‘quvchilar hamda ular bilan olib borilayotgan ishlarning noto‘g‘ri siyosat sababli salbiy oqibatlari yoritilgan.

Adib qalamig mansub eng sara asarlar: «Bobom dafn etilgan kun» («할아버지물힌날», 1975), «Osmon ostidagi joy» («하늘아래그자리», 1978), «Abening oilasi» («아베의가족», 1979), «Bizning qanot» («우리들의 날개», 1979), «Yonayotgan tog» («불타는», 1980), «Cho‘chqa bolalarining faryodi» («돼지새끼들의울음», 1975), «Yozgi daraxt po‘stlog‘i» («여름의껍질», 1980), «Abadiylik urug‘i» («씩지아니할씨», 1987), «Telba davr» («사이코시대», 1989), «Guvoh ko‘zgu» («거울의알리마이», 1992), «Biz ko‘rgan so‘nggi manzara» («우리가 보는 마지막 풍경», 2000) kabilardir.

Bundan tashqari, adibning «Vayron bo‘lgan qishloq» («바람난마을», 1977), «Tashqi chiroq» («외등», 1980) maqolalari; «Siz ham roman yoza olasiz» («당신도 소설을 쓸수있다», 1991), «Kim Yujong adabiyotiga nazar» («김유정 문학의 이해와 감상», 1995), «Bizning davr O‘ndali» («우리 시대의 은달», 1994) esselar to‘plami mavjud.

Yozuvchi ko‘plab davlat mukofotlari bilan taqdirlangan: «Zamonaviy adabiyot» (1977), «Zamonaviy adabiyot yozuvchisi» (1979), «Koreya Respublikasi adabiyoti» (1980), «Dong In adabiyoti» (1980), «Yun Dong Jun adabiyoti» (1988), «Kim Yujong adabiyoti» (1990), «Koreys adabiyoti» (1996).

Chon Sang Guk asarlarining nomlanishi ham o‘ziga xos. Bir qarashda oson, shuningdek, qandaydir yashirin ma’no mavjud. Yozuvchining fikriga ko‘ra, asarning nomlanishi uning ichki mohiyatini ifodalaydi. Asarlariga uzun nom berish yoki ularni nomlashda xitoycha so‘zlardan foydalanmaslikka harakat qilgan.

Ijtimoiy tengsizlik, tolesizlik, noto'g'ri yuritilgan siyosat sababli ta'lim sohasidagi kamchiliklarni real tasvirlagan Chon Sang insonning ma'naviy kamolotini hayot mazmuni to'g'risidagi masala bilan ayniylashtirgan. U o'z asarlarida o'zining zamondoshi bo'lgan inson fojiasi haqida falsafiy xulosalar chiqargan.

Chon Sang Guk adabiy merosining asosiy xususiyati koreys xalqining ma'naviy hayotini tatqiq etish hisoblanib, unda yozuvchi inson va uning hayotda bor bo'lishini anglashga asosiy diqqat-e'tibor qaratdi. Uning qalamiga mansub «Butning ko'z yoshlari» kabi asari inson shaxsiyatining yashirin olamini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda kollej talabasi xarakterining chuqur psixologizmi mufassal ko'rib chiqilgan. Koreys jamiyatini yangilash asosida Chon Sang Guk an'anaviy kurashlar va e'tiqodlarning o'tmishda qolib ketayotganligi va hech kimga kerak bo'lmay qolayotganligi, yangi oqimlar va ta'limotlarning esa yosh avlodning aql-zakovatini qanchalik egallab borayotganligi, yangi qonun-qoidalar joriy qilinayotganligi yorqin obrazlar vositasida aks ettirilgan.

2-bob. CHON SANG GUKNING «BIZNING QANOT» («우리들의 날개») ROMANIDA KO‘TARILGAN MUAMMOLAR

2.1. «Bizning qanot» («우리들의 날개») romanida davr muhitining badiiy talqini

«Bizning qanot» («우리들의 날개») romani ilk bor «Markaz» jurnalida e’lon qilindi. Asarning «Bizning qanot» («우리들의 날개») deb nomlaniida xalqning ko‘p asrlik qarashlari, koreys xalqining qadimgi diniy e’tiqodlaridan biri – shomonizm bilan bog‘liq ma’no mujassamlashgan. Shu bilan bir vaqtda, bu nom asarning g‘oyaviy mazmunini, asar bosh qahramonining o‘ziga xos xususiyatlarini jamuljam holda aks ettiradi. Xalq hayotida keng tarqalgan shomonlik haqida gapirar ekan, yozuvchi uni mamlakatda tobora keng tarqalayotgan boshqa diniy e’tiqodlar, ularning mamlakatda keng quloq yoyishi bilan birga xalq hayotiga ko‘rsatayotgan ta’siri bilan bog‘laydi. Bu davrga kelib hayot qiyinchiliklaridan hafsalasi pir bo‘lgan xalq barcha hayotiy muammolarning ildizini anglab yetish uchun qon-qoniga singib ketgan shomonlikdan panoh izlaydi. Har bir ishga qo‘l urishdan oldin folbinga murojaat qiladigan uy bekalarining ayanchli taqdirga folbin raiga ko‘ra tan berishlarini tasvirlaydi.

Asar syujeti murakkab emas. Asar bosh qahramonning o‘zi haqida hikoya qilishi, oilada ikkinchi o‘g‘il farzandning dunyoga kelishi bilan bog‘liq hodisalardan boshlanadi. Keyin esa romanda ikkinchi o‘g‘il farzandning dunyoga kelishi, uning ulg‘ayishi, aka-uka o‘rtasidagi tushunarsiz munosabatlar haqida hikoya qilinadi. Asar bosh qahramon tomonidan bayon qilinadi.

Asarda ikkinchi marotaba o‘g‘il nevara ko‘rgan buvining holati quyidagicha tasvirlanadi:

«우리집의 경우가 꼭 그랬다. 그때 아직 정정한 모습으로 살아 계셨던 할머니는 들쭉손자를 본 기쁨으로 동네 노인들 앞에서 덩실덩실 춤까지 추어 보였다. 하루에도 수십 번씩 안방을 들랑거리며 두호 기저귀를 갈아 채우면서 그 기쁨을 감추지 못했다. 그런 만큼 두호에 대한 할머니의 정성은 너무 극성스러울 정도였다. 부정을 탄 사람, 이를테면 초상집에 다녀오는 사람이 우리 대문 근처만 얼쩡거리어도 야단이 났다»⁹.

«Bizning uyda xuddi shunday holat hukm surardi. O'sha paytlarda hali ham baquvvat buvimiz ikkinchi bor nabira ko'rganliklari sabab xursanchiligidan mahalla qariyalari yonida quvnoq raqsga tushib berganlar. Kun bo'yi chaqaloqning xonasiga qatnayverib, Tuhoning yo'rgagini to'grilab qo'yib ham bu quvonchlarini yashira olmadilar. Buvim Tuhoni haddan tashqari avaylar, hamma narsadan hadiksirardi. Bexocdan janozaga borib kelayotgan biror kimsa darvozamiz yonidan o'tib qolsa ham arzimagan narsa deb dakki eshitardi».

Yangi tug'ilgan chaqaloq va kattalar o'rtasidagi muloqotning boshlanishi dunyoga kelishi bilan bog'liq urf-odatlarining birinchi elementidir. Shu sababli buvijon chaqaloqni avaylash uchun irim-sirimlarga qat'iy amal qilar edi. Janozadan qaytayotgan insonlar ularning ko'chasidan o'tishlari, eshik oldida to'satdan ham to'xtab qolishlaridan qattiq qo'rqar edi. Chunki katta o'g'il nevara sakkiz yoshga to'lganida ikkinchi o'g'il nevaraning oradan shuncha vaqt o'tib dunyoga kelishi juda ham hayajonli voqea bo'ldi.

Koreyada qadimdan homilador ayol o'zini qanday tutishi kerakligi to'g'risida «txegyo» («태교»), ya'ni «ona qornidagi bolaga» ta'lim berish tushunchasi mavjud. «Txegyo» – o'n oylik muddati o'qituvchi ta'lim bergan 10 yildan muhim jarayon». Homilador ayolning xatti-harakatlarini ona qornidagi bola xarakterining tashqi ko'rinishi, deb qabul qilingan. Chunki bola ona qornidayoq o'z orzulari, maqsadlari, xarxashalariga ega va faol harakat qiluvchi subyekt hisoblanadi. Txegyoda homiladorlikning dastlabki kunlaridanoq bo'lajak ona

⁹ 전상국«우리들의날개» - 서울, 1979. 1 쪽. Tarjima BMI muallifi tomonidan amalga oshirildi.

hamda uning atrofidagi odamlar o'zini qanday tutishi kerakligi haqida qoidalar, taqiqlangan tartiblar: to'g'ri ovqatlanish, har xil joylarga bormaslik, qattiq hissiyotlarga berilmaslik mavjud. Bu aynan ona qornidagi bolaning yuksak qadriyatga ega ekanligi, homilador ayolning barcha harakatlari mezoni hisoblanishi bilan bog'liq.

Mana shunga bog'liq ravishda Koreyada oilani boshqarish birinchi erkak avlodga topshirilgan, shuning uchun o'g'il farzandning tug'ilishini hayajon bilan kutishgan. O'g'il farzand tug'ilishi yoki farzandning kimligini oldindan bilish uchun bajariladigan ko'plab irim-sirimlar (magiya) mavjud bo'lgan.

Buning uchun mos urf-odatlar va marosimlar o'tkazilgan, shu bilan birga uy ruhlarini o'ziga xos ovqatlantirish udumi ham bajarilgan. Quyidagi ruhlar alohida hurmatga sazovor bo'lishgan: ajdodlar ruhi «조왕신» («Chovansin»); bo'lajak chaqaloq himoyachisi «삼신할머니» («Samsin xalmoni») – Samsin momo. Tug'ruqni doya yoki qaynona qabul qilgan. Agar tug'ruq jarayonida murakkabliklar bo'lsa, er ham ishtirok etgan. Bola tug'ilishi bilan birinchi navbatda uning kindigini bog'lash va uni saqlash muhim hisoblangan. Bola tug'ilgandan uch kun o'tgach, kimdir bola kindigini kichkina sopol ko'zachaga solib, ustini yopib, yerga ko'mgan bo'lsa, kimdir suvga oqizib yuborgan, boshqalari esa o'tda yondirishgan. Bola dunyoga kelgach, shu zahoti uyning darvozasiga qamishdan to'qilgan arqon «금줄» («kimchjul») osib qo'yishgan. Arqon darvozada 21 kun osig'liq turgan. Bu xonadonda yangi chaqaloq dunyoga kelganligi, uyga kirish mumkin emasligidan dalolat bergan. Shu bilan birga to'qilgan arqonga farzandning kimligini ko'rsatuvchi belgi ham qo'yilgan. Agar o'g'il farzand tug'lsa, arqonga quritilgan qizil gamdori, qiz farzand tug'lsa bir tutam oq qog'oz yoki shuvoq shoxchasi qo'shib ilib qo'yilgan. Keyingi bosqich bu yangi tug'ilgan chaqaloqqa kiyim kiydirish odati. Birinchi marotaba yangi tug'ilgan chaqaloqqa kiyimni birinchi haftaning oxirida kiydirishgan.

«내가 태어났을 때 그랬던 것처럼 두호도 석 달 열흘 간이나 안방 문지방을 넘지 못했다. 정수박이를 만지면 단명하다고 해서 삼 년간 그곳에 쇠딱지를 한 번도 씻어내지 않았다. 삼신풀이굿을 위해 무당이 집안을 들랑거렸다. 두호가 베는 베개를 가지고 장난을 하다가 할머니한테 호된 매도 맞았다»¹⁰.

«Menga o'xshab Tuho ham 3 oyu 10 kun chorom¹¹ga amal qilib yotoqxon ostonasini hatlab o'tmadi. Chaqaloqning boshidagi yumshoq qismiga tegsa umri qisqa bo'ladi deb, uch oylar atrofida bolaning boshidagi qazg'og'ini biror marotaba ham yuvishmadi. Shaman Samshin Xudolarga atab marosimlar o'tkazish maqsadida uyimizga juda ko'p bora kelib ketardi. Tuhoning boshidagi yostiqli olib o'ynaganimda buvimdan juda kuchli haqorat eshitganman».

Haqiqatda buvisi bir umr ruhlarga sig'inib yashagan, ularga xayr-ehsonlar qilgan, gunohlardan tozalanish rasm-rusumlarini joyiga qo'ygan, o'zini qurshagan dunyo o'zi yashayotgan dunyodan boshqacha bo'lishini u hatto tasavvur ham qila olmagan. Yosh insonning paydo bo'lishini tong otishi – quyoshning ilk nurlari zulmatga burkangan burchaklarini yoritib, qo'rquvlar va vasvasalarni hayday boshlaydigan palla bilan qiyoslash mumkin.

Koreyada bola tug'ilishi bilan bog'liq ravishda o'tkaziladigan eng katta va birinchi bayram bu yuz kunlik – «pekil» («백일»)dir. Hozirgi kunda «pekil» dabdaba bilan o'tkazilmaydi. Ammo mamlakatda bola o'limi ko'payib ketgan yillari yangi tug'ilgan chaqaloq hayotning eng murakkab davridan o'tganida (ya'ni tug'ilgach, oradan 100 kun o'tib) «pekil» («백일») xursandchilik uchun arzirli bayram hisoblangan. Koreys an'analariga ko'ra bu kuni yangi tug'ilgan bola himoyachisi Samsin xalmoniga hadya berish, barcha tanish va qarindoshlarga guruchdan tayyorlangan shirinliklar ulashish lozim bo'lgan.

¹⁰전상국«우리들의날개» - 서울, 1979. 1 쪽.

¹¹ Chorom – farzand dunyoga kelganidan so'ng 100 kunlik o'tkazish marosimi

Tuho dunyoga kelganligidan boshi ko'kka yetgan buvi, bunday baxtni faqat o'zi ko'rayotganidan nadomat chekdi, ancha avval vafot etgan cholini xotiraladi, o'zini aybdordek his etdi. Uning choli beshinchi avlodda tug'ilgan og'lini uylantirib toki og'li o'g'il farzand ko'rmaguncha tinchlana olmagan, uydagi ayollarni sababsiz qiynagan edi. Avval qiz farzand dunyoga keldi, o'n yil deganda o'g'il farzand dunyoga kelganda choli o'ttiz yetti yoshda edi. Bunday holda o'g'il nevara ham ko'rmay o'lib ketamanmi, deb ming'irayvergan chol o'g'lini 17 yoshida uylantirdi. Birinchi o'g'il nevara ham tez orada dunyoga kelmadi. O'g'li o'ttiz ikki yoshga kirganida birinchi o'g'il nevara dunyoga keldi. Avlod davomchisi tug'ilmayapganligidan xavotirlanib, orom topa olmagan kampir birinchi o'g'il nevara tug'ilgach o'zgarib qoldi. Chunki oltmish yoshdan oshgan chol xiyonat ko'chasiga kirdi. Kampirdan boshqasini bilmaydigan chol **«ichiga jin kirib qolgani»** sabab qo'shni qishloqda yashaydigan beva ayol bilan qayergadur izesiz yo'qoldi.

Kampir nima bo'lganini bilsa-da, sababini tushuna olmadi. Qiz farzand dunyoga kelgach, o'g'il farzandni dunyoga keltira olmay, turmush o'rtog'iga jazmandan bo'lsa ham o'g'il farzand ko'ring, degan paytlari ham «nima deganing bu», deb sakrab tushadigan cholning uzoq kutgan o'g'il nevara ko'rganlaridan so'ng bu qiliqlari tushunarsiz bo'lib qoldi.

Shundan so'ng kampir to'xtovsiz folbinga qatnay boshladi. Endi u har bir mayda-chuyda ishlarga ham har doim yig'ib yurgan pullarini olib folbin uyiga boradigan bo'ldi. Har safar folbinning gaplari to'g'ri bo'lib chiqardi. Folbinning o'n yildan so'ng o'g'il farzand ko'rasan, degan gaplari ham o'z tasdig'ini topdi. Bu safar ko'r folbin buvamlar qariganda qo'shni qishloqdagi beva ayol bilan qilgan xiyonatlarini **«uyni tark etish qismati ekan!»** dedi. **«O'z holiga qo'y, ketgani yaxshilikka bo'lsin, zo'rlik bilan ushlab qolsang bolangni yo'qotish qismati kutmoqda»**.

Ikkita insonga bir vaqtning o'zida o'lim soya solib, ular bir tom ostida yashashiga to'g'ri kelsa, ulardan bittasi shu o'linga yuz tutsagina uy tinchiydi. Agar shunday bo'lsa, bir inson o'lishidan boshqa iloj yoq, dedi. Kampir folbinning aytgan gaplariga to'liq ishondi. Uydan chiqib ketgan buvamni ayblashsinmi yoki bolasining qismatidan nolisinmi, nima qilishni bilmay qoldi.

Shu bilan bir vaqtda, kampirning shomonlik irim-chirimlariga ko'r-ko'rona sig'inishi kuchaydi. U yangi avlod odamlarining yangi e'tiqodga, yangi haqiqatga intilishlarini hech qachon anglamasligi ayon edi. Uning maqsadi faqat o'g'il farzandning jonlarini qutqarish bo'lib, folbinning har bir aytgan gaplariga quloq tutar, unga batamom amal qilishga harakat qilardi. Iblisga sig'inib yashaydigan hamqishloqlariga shomonlikka mukkasidan berilgan kampir yangi zamondan daraklarni eshitishni ham istamas edi.

Qahramonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda kuchli konfliktni ko'rsatar ekan, muallif inson qalbining teran qatlamlariga nazar tashlashga va uni tushunib yetishga harakat qiladi. Ularning muallif tasvirlagan va tavsiflagan ichki dunyosiga nazar tashlar ekanmiz, unda qanday orzu-umidlar va intilishlar zohir ekanligini ko'ramiz, bu hech bir sababsiz yuzaga kelgan konfliktli vaziyat emas, balki chinakam fojia ekanligini tushunamiz. Asar bosh qahramonlarining ma'naviy-g'oyaviy izlanishlari ancha keskin xususiyat kasb etadi va ular ruhiy iztiroblar, fojeylik bilan bog'liq. Asarda fojiviy ruh yoki mazkur vaziyatda konfliktni yechish mumkin emasligi bilan bir qatorda, uning tabiiy ekanligini ham ko'rsatadi: ertami, kechmi konflikt chiqishi lozim edi.

«...니가 하라버이 대신이여!».

할머니가 내 등을 긁어주며 가끔 그런 뜻의 말을 했다. 할아버지가 집을 나갔기 때문에 우리 집의 손이 끊기지 않게 됐다는 뜻이었다»¹².

«... *buvangning o'rniga sensan!*».

¹²전상국 «우리들의날개» - 서울, 1979. 2 쪽.

Buvin ba'zida mening yelkalarimni uqalab turib, shunday derdilar: Buvangning uydan ketishi avlodimizning davom etishidan dalolat beradi».

Buvasi uydan chiqib ketib, keyin qaytganida bosh qahramon olti yoshda edi. Buvasining murdasini somon ko'rpachaga o'ralgan holda olib kelishdi. Buvasi bilan qochib ketgan jazmani giyohvand ekan. Sholi ekin dalalarini sotib chiqib ketganidan so'ng pullarning hammasi tugagan, qashshoq bo'lib qolishgan, so'ng u yer bu yerda tentirab yurib kun kechirgan. Oxir oqibat uyga qaytib kelolmagan. Boshqa yurtdan murdasi somon ko'rpachaga o'ralgan boboning xabarini birinchi bo'lib eshitgan buvisi uning etagiga yopishgan nevarasining qo'llarini siltab tashladi. Nevara o'sha payt unga o'qrayib qaragan buvisining ko'zlarini bir umr unutilmadi. Eng so'nggi lahzada buvining ko'zida xusumatga o'xshash yovuzlik chaq nab o'tgan edi. Buvaning dafn marosimlari o'tkazilganidan so'ng oradan ikki yil o'tib onasi yana homilador bo'ldi. Buvi esa yana folbinni qidirib ketdi.

«...아들을 낳겠구먼» 점쟁이가 다시 말했다. «허지만 아들이라고 다 좋은 건 아니여...»

입맛을 찻찻 다시며 그랬다. 할머니가 무슨 얘기냐고 다그쳐도 점쟁이는 속 시원한 말을 해주지 않았다. 다만 아기를 낳거든 그 출생 일자를 맞춰 다시 한 번 와보라고만 했다. 그러나 두호를 낳기가 무섭게 그 점쟁이를 찾아갔을 때는 이미 그는 서울 어디론가 이사를 가버리고 만 뒤였다. 다른 점쟁이들을 찾아다녔지만 별 신통한 소리를 듣지 못한 채 할머니는 오직 얼마 전의 그 점쟁이 말만을 마음에 새록새록 되새길 수밖에 없었다»¹³.

«...o'g'il tug'ar ekan»... Folbin gapini davom ettirdi. «...lekin o'g'il degani bilan hammasi yaxshi degani emas...».

Og'zini yarim ochib, ming'irlab, yana nimadir dedi. Buvimlar nima demoqchisiz, deb qayta so'rasalar ham folbin buvimning ko'ngliga yoqadigan

¹³전상국«우리들의날개» - 서울, 1979. 2 쪽.

tayinli gap aytmadi. Shunchaki, bola tug‘ilgach, tug‘ilgan sanani bilib, yana kelib ko‘ring dedi.

Lekin Tohu dunyoga kelishi bilan o‘sha folbinni qidirib borsalar, afsuski allaqachon Seulga ko‘chib ketgan ekan. Boshqa folbinlarga borib tayinli gap eshitmagan buvimlarning faqatgina ancha oldin eshitgan o‘sha folbinning gaplarini ichlarida qayta qayta takrorlanishdan boshqa chorasi yo‘q edi».

Asarda fojiviylik o‘ta chuqur xususiyat kasb etadi.

«소나기 같은 사랑을 퍼붓기 시작했다. 그것은 결코 정상적인 부모의 자식에 대한 사랑이라고 생각할 성질의 것이 아니었다. 그네들은 이제까지 자기들이 보였던 자식에 대한 그 미온적인 사랑에 대해 참회라도 하듯 광적인 사랑을 퍼붓기 시작했던 것이다. 그 대상은 물론 두호였다.

나는 열외자가 되어 그네들의 그 비정상적인 변화를 적의 깊게 바라보았다. 그렇다. 나는 다분히 적의를 품지 않을 수 없었다. 두호와 나는 비록 여덟 살 차이이기는 했지만 아직은 그네들 품 속의 어린 새에 불과했기 때문이다. 나는 혼자 내던져지는 걸 무서워 했다. 나는 솔직히 그네들의 편애에 대해서 참을 수 없는 분노를 모닥불 피우듯 가슴에 담아가지고 있었다»¹⁴.

«Kutilmaganda ularning mehri jala kabi yog‘ila boshladi. Bu odatda otionalarning farzandlariga ko‘rsatadigan mehrlaridan mutlaqo ajralib turardi. Ular shu kunga qadar farzandlariga nisbatan sovuq muomalada bo‘lganliklari uchun afsuslangandek, telbalarcha mehr ko‘rsata boshlashdi. Bu mehr shak-shubhasiz Tuhoga atalgan edi.

Men ularning g‘ayritabiiy qiliqlarini sirtidan uzoq kuzatdim. Shunday. Menda ortiq darajada rashk tuyg‘usi kuchayib borardi. Men Tuhodan sakkiz yosh katta bo‘lsam-da o‘zimni ularning quchog‘idagi kichik qush kabi his etardim. Men yolg‘iz qolib ketishdan qo‘rqardim. Rostini aytsam, ularning ukamga

¹⁴전상국《우리들의날개》- 서울, 1979. 5 쪽.

ko'rsatayotgan mehrlariga toqat qilolmay, g'azab ichida yonardim, bu g'azab yuragimni yondirardi. Tuhoga yaxshi kiyimlarni sotib olib berishar, uy egasi bolalariga olib berolmagan o'yinchoqlarni olib kelishardi».

Uyda aqlga sig'maydigan kulgili holatlar yuzaga keldi. Kutilmaganda dadasi ishdan tushgan choychaqaga har kuni Tuhoga o'yinchoq olib kelardi. Tuho bu o'yinchoqlarni hovlining u yer bu yeriga yoyib o'ynardi. Ijara egasining bolalari Tuhoning atrofida girdikapalak bo'lishardi. Ichki o'ylar girdobida, nolib turgan onasining Tuhoni quchoqlab yig'lashlari tez-tez ko'paya boshladi. Onasi va dadasining Tuhoga bo'lgan bu tushunarsiz mehrlari kun sayin ortib borardi. Hanho albatta, buni tushunardi. Vaqt o'tgani sari Tuho kundan kunga ozib, telbaga aylanib borayotganiga chidab bo'lmas edi.

«어렸을 적부터 고모는 내 말을 잘 들어주었다. 나는 고모에게서 그네들 비밀의 그 끈적끈적한 것의 정체를 깨내고 말 심산이었던 것이다. 돌아가신 할머니를 꼭 빼닮은 고모가 내 다그침에 견디다 못해 입을 열었다:

이건 너두 알고 있어야 할 거라고 생각은 했다만.

오십이 가까운 고모는 열네 살 조카한테 그네들이 숨겨온 그 끈적끈적한 비밀의 정체를 털어놓기 시작했다.

«네 동생 개, 살아야 몇 달 더 못 산다»¹⁵.

«Yoshligimda ammam mening so'zlarimga quloq solardilar. Men ammamdan bu sirning tagiga yetish xayolida edim. Olamdan o'tgan buvimga quyib qo'ygandek o'xshash ammam, mening savollarimga dosh berolmay javob berdi:

Buni sen ham bilishing kerak, deb o'ylardim.

Ellikka borib qolgan ammam o'n yoshli jiyaniga yashirin sirni ochib bera boshladi:

¹⁵전상국«우리들의날개» - 서울, 1979. 6 쪽.

«Ukangning hayoti tugashiga oz qoldi».

Ammasuning gaplariga qaraganda Tuho ko‘p yashamaydi. Barchasiga sabab dadasi shag‘al zavodiga ishga kirganida sodir bo‘lgan falokat edi. Onasi bilan dadasi bunday falokat sodir bo‘lishini oldindan bilishgan ekan. Onasi qatnagan folbinlardan birining ta‘biri shunday bo‘lgan. Onasi qatnagan barcha folbinlar bir ovozdan erining kelajagi yaxshi emasligini aytishgan. Buvim ko‘rsatgan qarshiliklarga qaramasdan harbiy xizmatga o‘z xohishi bilan ketishi, harbiy xizmatda avtohalokatda vafot etgan serjant voqeasi, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan yerlarni sotish, hozirda Seulga kelib, baribir ishi yurishmagan eri bilan bog‘liq barcha voqealar folbinlarning ta‘biri bilan mos kelgan. Shak-shubhasiz, onasi folbinlar buyurganidek, o‘sha qurbonlik deganlarini qunt bilan bajargan. Biroq uyning qayerigadir kirib olgan yomonliklar juda ham ko‘pligi sabab onasi chin dildan barcha amallarni bajarsa-da, ularni bartaraf eta olmagan. Onasi bilan ammasi bu yomonliklarni yo‘q qila oladigan qandaydir kuch izlashayotgan edi. Biroq hech qaysi bir folbin to‘g‘ri amalni ko‘rsatib bera olishmagan. Har bir folbin har xil gaplar aytgan. Qaysidir folbin necha yil avvalgi buvaning qabri noto‘g‘ri qo‘yilgan, qabrni ko‘chirish kerakligiga ishora qilgan, qaysidir folbin uyni tark etib boshqa yerda vafot etgan buvaning ruhigacha to‘g‘ri rom ochgan. Biroq hech kim bu yovuzliklarni yo‘q qila oladigan samarali usulni topib bera olishmagan.

Tasodifan onasi buvisi qatnagan o‘sha folbinni uchratib qolgan. Bu vaqtda eri falokat sodir etib, tayinli ish qilmay telbalarcha uy burchagida yotgan, o‘zi esa oilani boqish uchun bozorda oldi-sotdi bilan shug‘ullanayotgan edi. Albatta u buvisining sevimli folbinini tanib qolgan, folbin ham onasini tanigan. Va onasi oilaning avvalgi hayotidan boxabar folbinga yopishib yalingan.

«아무 날 아무 시에 난 얘기 잘 크나? 점쟁이가 그렇게 물었다. 잘 큰다고 엄마가 대답했다. 그렇겠지! 점쟁이가 판전을 피웠다. 엄마가 한 달 동안 장사한 돈을 복채로 놓

왔다.

문제는 두호였다. 두호가 사(邪)라는 것이었다. 한 집안에 살이 낀 사람이 둘 있으면 그렇게 안 좋다는 얘기였다. 손이 귀한 집일수록 그런 일이 흔하다고 했다»¹⁶.

«Qaysidir kun qaysidir payt tug‘ilgan bola yaxshi o‘syaptimi? Folbin shunday deb suragan. Yaxshi o‘syapdi, deb javob bergan oyim. Shunday bo‘lishi kerak! Folbin gapirib turib chalg‘igan. Oyim bir oy davomida ishlab topgan pulini folbinga bergan.»

Muammo Tuho bilan bog‘liq edi. Tuho yomonlik degani edi. Bir uyda ikkita odamga yomonlik soya tashlasa, bu yaxshilik belgisi emas. Uyda farzand qanchalik aziz bo‘lsa, bu odatiy hol sanalgan».

Ammasining gaplariga qaraganda, Tuho o‘lishi kerak edi.

«그럼 액땜을 하면 될 거 아냐?».

내가 비꼬는 투로 묻자 고모가 설레설레 고개를 흔들었다.

«판 방법은 없대드라. 두 사람 중에 하나가 죽는 수밖에.... ».

그 말을 어렵잖이 해내는 고모의 얼굴에 개기름이 번지르르했다.

«그래서 두호가 죽을 거란 말예요?»

나는 나도 모르는 사이에 소리쳤다. 고모가 내 입을 막으면서 말했다.

«그 점쟁이 말로는 두호가 명이 짧게 태어났다고 하더란다. 그 대신 일평생을 산 사람만큼 제 기를 써먹고 죽을 거란 얘기였다»¹⁷.

«Qurbonlik qilsak bo‘lmasmidi?».

Men kesatiq ohangida so‘raganimda, ammam boshlarini sarak-sarak qildi.

«Faqat boshqa yo‘li yo‘q emish. Ikkita odamdan biri o‘lishidan boshqa...».

Bu so‘z ammamning og‘ziniing bir chetidan chiqib ketdi, ammam ko‘zimga tasqaradek ko‘rinib ketdi.

¹⁶전상국《우리들의날개》- 서울, 1979. 7 쪽.

¹⁷전상국《우리들의날개》- 서울, 1979. 7 쪽.

«Bu bilan Tuho o‘ladi demoqchimisiz?». Men o‘zim bilmagan holda baqirib yubordim. Ammam mening og‘zimni yopib gapirdi.

«O‘sha folbinning gapiga ko‘ra Tuhoning umri qisqa ekan. Uning evaziga butun umrini yashagan inson kabi o‘zining quvvatini sarflab o‘lishini aytdi».

Hanhoning ichidan nimadur uzilib tushganga o‘xshadi. Bu dadasiga bo‘lgan ishonchning so‘nishi edi. U dadasini uyning burchak burchagida izg‘ib yurgan shomonlardan farqli, deb o‘ylar edi. Nimaligini aniq bilmasa-da, dadasi uydagi notinchlik va tushunarsiz kuch bilan oxirigacha kurasha oladi, deb umid qilgan edi. Hanho dadasining qanchadur vaqt deganda uyga har kelganida Tuhoga bir hovuch o‘yinchoqlar olib kelgani sababini tushunganga o‘xshadi. Telba. U ichi-ichidan yig‘lardi.

Yozuvchi dunyoni anglab yetishga harakat qiladi, insonning hayotdagi yo‘lini va inson ruhining yo‘lini tadqiq etadi. Muallif Koreya jamiyati uchun muhim bo‘lgan masala – o‘g‘ilning o‘z ota-onasi oldidagi burchi masalasining aniq yechimini taklif qilmaydi, muayyan xulosa chiqarishni va o‘zi uchun aniq bir to‘xtamga kelishni u kitobxonning o‘ziga havola etadi.

2.2. Shomonlikning oilaviy munosabatlarga salbiy ta'siri masalalari

«Bizning qanot» («우리들의 날개») romanining asosiy mavzui adabiyotdagi abadiy mavzulardan biri – avlodlarning o‘zaro munosabati mavzuidir. Bu mavzu barcha davrlarda, barcha xalqlarda muhim ahamiyat kasb etgan. A.B. Yesin ta’kidlab o‘tganidek «...mavzu koreys, rus, ingliz adabiyotida ancha keng yoritilgan va u turli tarixiy davrlarda, turli avlodlar hayotida biroz o‘zgargan ko‘rinishda takrorlanadi»¹⁸.

Koreya yarimorolida sodir bo‘lgan tarixiy voqealar katta va kichik avlod vakillari o‘rtasidagi muayyan ziddiyatlar bilan bog‘liq asosiy konfliktni anglab yetishga yordam beradi. Neolit davrida Koreya hududiga o‘rnashib qolgan insonlar tabiatni ilohiylashtirishgan, unga son-sanoqsiz ruhlarni joylashtirishgan, dunyoqarashlari animizmga asoslangan. Shuningdek, ular inson ruhining abadiyligiga ishonishgan. Shuning uchun murdalarning boshlarini sharqqa – quyosh chiqishiga qarab joylashtirib, dafn etishgan.

Neolit davri odamlari insonlarga yaxshilik olib keluvchi yaxshi ruhlar, baxtsizlik keltiruvchi yovuz ruhlar borligiga ishonishgan. Shomon yoki

¹⁸ Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М., 2000.С. 25.

koreyschasiga *mudan* – ruhlar bilan udumlarni amalga oshiruvchi marosimlarni o‘tkazish uchun xizmat qilgan, ya’ni tiriklar va o‘liklar dunyosi o‘rtasida vositachi bo‘lgan. Odamlar shomon baxtsizlikni haydaydi, kasallarni davolaydi, boqiy dunyodan foniy dunyoga baxayr ketishni ta’minlaydi, tiriklar va o‘liklar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan munozara va ixtiloflarni hal qiladi, deb ishonishgan. Koreyada shomonlik har bir narsa paydo bo‘lishi va tabiatni qurshagan predmetlar, xususan, tosh va daraxtlar, tog‘ va suv oqimi, samoviy jismlar, minglab ruh va jinlarga ta’zim qilishgan.

Shomonlar haqida dastlabki ma’lumotlar Silla davri Vanxo qirolligiga borib taqaladi. Kim Busikning «Samguk sagi» va Kim Iryonning «Samguk yusa» asarlarida shomonlik haqida oz bo‘lsa-da ma’lumotlar uchraydi. Qadimgi Koreyada shomonlik qo‘rquv va irim-sirim dini hisoblangan, ammo zamonaviy avlod vakillari uchun shomonlik go‘zal va badiiy milliy madaniyat elementi bo‘lib qoladi. Shomonlik odatlari musiqali teatr namoyishlari va marosim raqslari elementlariga ega bo‘lib, yovuz ruhlarni haydashda foydalanilgan. Daosizm, konfutsiychilik va buddizm kabi diniy-falsafiy ta’limotlar keng tarqalsa-da, xalq shomonlik e’tiqod va odatlardan voz kechmadi. Aksincha bu diniy-falsafiy ta’limotlar shomonlikka xos ba’zi bir elementlarni o‘zlashtirdi va tinch-osuda mavjud bo‘lishda davom etdi. Shomonlik koreys xalqining yashirin dini va madaniyatining muhim aspekti bo‘lib qoldi.

Uch podsholik davrida (miloddan avvalgi 57 yil eramizning 676 yillari) va Koryo qirolligi (918–1392 yy.) marosim odatlari rivojlanishda davom etdi, ammo Choson davri (1392 –1910 yy.) va Yapon okkupatsiyasi (1910 – 1945 yy.) davriga kelib shomonlik quvg‘inga uchradi. Koreys shomonizmining o‘ziga xos xususiyati shomon qo‘shiq aytib va raqsga tushib ruhlardan yerga baraka so‘rash orqali ruhlarga qurbonlik keltiruvchi «gut» hisoblanadi. Har bir hududda shomonlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Jumladan, janubiy hududlarda shomonlik avloddan-avlodga o‘tadigan meros bo‘lsa, markaziy hududlarda odatda, «ruhlar

o‘rnashib olgan» odamlar shomon bo‘lishadi. «Gut»ning asosiy turiga «pyolsingut» (qishloq osuda hayoti va farovonlik uchun duolar o‘qish), «pyongut» (oilasi a’zolaridan birining sog‘lig‘ini so‘rab o‘qiladigan duo) va «naragut» (qirol oilasi amriga ko‘ra o‘tkaziladigan odat)lar kiradi. Vaqti-vaqti bilan «gut» qishloqdagi qurbonlik qilish bilan birga o‘tkazilib, hatto hududiy bayramga aylanib ketadi. Jumladan, «Kannin Tanogut» festivali har yili Kannin shahrida Oy kalendari bo‘yicha 5 may kuni o‘tkaziladi.

Roman qahramoni buvi obrazidan bir qarashda ancha salbiy taassurot paydo bo‘lsa-da, keyinchalik bu obraz yanada yumshoq, g‘amgin va fojiaaviy xususiyat kasb etadi. Zero, bu ayolda bir vaqtning o‘zida kuchli iroda, fe’l-atvor, o‘z farzandlariga muhabbat shu bilan birga boshqa xususiyat – o‘jarlik, jizzakilik, telba-teskarilik, murosasizlikni ham qayd etib o‘tish lozim:

«두호가 세 살 때 할머니가 돌아가셨다. 나는 엄마와 함께 할머니의 임종을 지켜 보았다. 아버지는 그때 군대에 들어가 집에 없었던 것이다.

할머니는 숨을 몰아쉬면서도 방 안을 두리번거렸다.

«두호는 밖에 나갔어요, 어머니».

엄마가 큰소리로 말했다. 할머니는 앓아 누우면서부터 두호를 싫어했다. 싫어한다기보다 차라리 무서워하는 것 같았다. 당신 곁에 두호가 얼씬도 못하게 했다...»¹⁹

«Tuho 3 yoshga to‘lganida buvimlar olamdan o‘tdilar. Onamlar bilan birga buvimni so‘nggi manzilga kuzatdik. O‘sha paytda dadam armiyaga ketganligi sababli uyda yoq edilar.

Buvim hansiragancha xonaga nazar soldilar.

«Tuho tashqariga chiqib ketti, oyi».

¹⁹전상국«우리들의날개» - 서울, 1979. 3 쪽.

Oyimlar baland ovozda gapirdilar. Buvimlar kasal yotganlaridan beri Tuhoni yomon ko‘rar edilar. Yomon ko‘rishdan ko‘ra qo‘rqadiganga o‘xshardilar. Tuhoni ko‘zlariga ko‘rinishiga ham qo‘ymadilar...».

Ayni vaqtda, buvining fe‘l-atvorini uzil-kesil «yaxshi» yoki «yomon» deb baholash mumkim emas, zero, «yomon» tavsifidan voz kechishning o‘zi bilan ideal qahramon paydo bo‘lmaydi. Badiiy tasvirlar olamida kamchiliklar, nuqsonlar ko‘p hollarda fazilatlar, ijobiy jihatlarning davomi sifatida namoyon bo‘ladi.

«정수박이를 만지면 단명하다고 해서 삼 년간 그곳에 쇠뿔지를 한 번도 씻어내지 않았다. 삼신풀이곳을 위해 무당이 집안을 들랑거렸다. 두호가 베는 베개를 가지고 장난을 하다가 할머니한테 호된 매도 맞았다. 매를 맞고 내가 서럽게 울 때마다 할머니가 말했다.

«너두 이 할미가 다 그렇게 키웠단다».

내가 태어났을 때는 두호의 몇 갑절이나 되는 정성을 쏟았다는 얘기가.

«니가 다 복이 많으려니까 동생을 본 거야».

그러면서, 아무리 내리사랑이라고는 하지만 그 대견한 거야 말손자에 비할 거냐고 남들 앞에서 내 자랑을 늘어놓던 할머니였다».²⁰

«Chaqaloqning boshidagi yumshoq joyga tegsa umri qisqa bo‘ladi deb, uch oylar atrofida bolaning boshidagi qazg‘og‘ini biror marotaba ham yuvishmadi. Shaman Samshin²¹ Xudolarga atab marosimlar o‘tkazish maqsadida uyimizga juda ko‘p bora kelib ketardi. Tuhoning boshidagi yostiqni olib o‘ynaganimda buvimdan juda qattiq haqorat eshitganman. Bunday haqoratdan ranjib, yig‘laganimda buvimlar shunday deganlar:

«- Seni ham buving xuddi shunday katta qilgan».

²⁰전상국《우리들의날개》- 서울, 1979. 1 쪽.

²¹전상국《우리들의날개》- 서울, 1979. 2 쪽.

Bu tug‘ilganimda menga qanday qarashgan bo‘lishsa, Tuhoga ham shunday qarashyapti, degani edi.

«Sening baxting ukalik bo‘lding».

Buvim bola qancha yosh bo‘lsa, shuncha ko‘p mehr ko‘rsatiladi, deganlari bilan sevimli katta nevarammi kichkinasi bilan solishtirib bo‘larmidi, deb boshqalarga meni maqtaydigan ham o‘zlari edi»²².

O‘z irim-sirimlariga o‘ralashib qolgan buvining har bir xatti-harakati o‘quvchida salbiy tasavvurga sabab bo‘la olmaydi, balki uning shomonizm sirlarini arqoshlashi, kelajak avlod qayg‘usi bilan yashashi kitobxonning unga bo‘lgan muhabbatini yuzaga keltiradi. Buvining folbin oldiga ko‘p qatnashi, irim-sirimlarga ishonoshi kabi epizodlar orqali muallif koreys xalqining mazkur davrdagi turmush tarzi va o‘ziga xos xususiystlarini ochib berishga harakat qiladi.

«서울서 내려온, 아버지보다 열 살 위인 고모가 엄마한테 물었다. 엄마가 고모 곁으로 바짝 다가앉으며 말했다.

«내가 형님한테 묻고 싶은 얘데요. 글썄 어머님이 서울 가셨다 온 뒤로 저렇게 두호를 미워하신단 말씀예요»

고모가 뭔가 생각을 짚어내려는 듯 눈을 껌벅이다가,

«맞아. 어머니가 우리 집에 오셨을 때 여기 읍에 살던 그 점쟁이를 서울서 만나보셨대. 어머니 말로는 아주 용한 점쟁이라고 하데»

«그래, 그 점쟁이가 우리 두호를 미워하라고 했대요?»

«설마 그럴 리가! 다만 그 점쟁이를 만나고 나서 부랴부랴 집으로 내려가셨거든. 하긴 이런 말씀을 하시데. 두호 짜가 자식이 아니라 사(邪)라고»

«아마 그건 그때 짜 아버지가 제 고집대로 군대엘 들어간 일 때문에 그랬을 거예요."엄마가 말했다»²³

²²전상국«우리들의날개» - 서울, 1979. 3 쪽.

²³전상국«우리들의날개» - 서울, 1979. 3 쪽.

«Dadamdan o‘n yosh katta ammam Seuldan kelgach o‘yimdan so‘radilar. Oyim ammam bilan qaplashib o‘tirib, shunday dedilar:

«...men akamdan so‘ramoqchi edim. Hayronman, oyimlar Seulga borib kelganlaridan so‘ng, Tuhoni yoqtirmay qo‘ydilar».

Ammam qandaydur hayolga cho‘mib, ko‘zlarini ochdilar:

«...ha to‘g‘ri, oyimlar bizning uyga borganlarida shu qishloqda yashagan folbinni Seulda uchratdim, degan edilar. Oyimning aytishlaricha, juda ham to‘g‘ri topadigan folbin emish... ».

«- Nima u u folbin bizning Tuhoni yomon ko‘rishni aytganmi?».

- Bunday bo‘lishi mumkin emas! Faqat u folbin bilan ko‘rishganlaridan so‘ng shosha pisha uyga ketib qoldilar. Aytgancha, Tuho u bola emas falokatdur, degan edilar.

Hoynahoy, bu o‘sha paytda dadamiz qaysarlik qilib armiyaga ketganlari sababli bo‘lsa kerak, dedilar oyim».

Suhbatdan shu narsa anglashiladiki, buvi folbin oldiga borib bir noxush gap eshitgan, bu Tuho yoki armiyaga bormasa ham mumkin bo‘lgan o‘g‘lining taqdiri bilan bog‘liq. U o‘z kechinmalarini hatto qiziga ham ayta olmadi, ammo shu bilan birga tushkun kayfiyatdan han qutila olmadi. Bu xuddi kundalik turmushdagi oddiy bir hol kabi kechardi.

Bu o‘rinda muallif onaning o‘z farzandiga bo‘lgan cheksiz muhabbatini aniq va lo‘nda qilib ko‘rsatadi. Bu tuyg‘u shu darajada samimiy, ochiq va fidokorona, hatto buvi farzandlarida o‘zining tushunarsiz xatti-harakatlari bilan shubha uyg‘otsa-da, ularga, hatto Tuhoga bo‘lgan ulkan muhabbati aslo kamaymaydi.

Buning isboti o‘laroq buvi o‘zigagina ayon iztiroblardan keyin bu dunyoni tark etishga qaror qiladi. Buvi o‘z umrini baxshida etgan ishga ishonchini yo‘qotmasdan bu dunyoni tark etadi.

Buvi – hayotni tark etadi, chunki u folbin aytgan gaplarga ishonadi, oilasini, kelajak avlodni asrab qolish, o‘zidan oldin bu dunyoni tark etgan cholining oldiga yorug‘ yuz bilan borish uchun ham bu dunyoda umri poyoniga yetti deb hisoblaydi.

«그 비밀을 끝내 입 밖에 내지 않은 채 할머니는 세상을 떠났다. 할머니의 마지막 숨을 거두는 모습이 그렇게 무서울 수가 없었다. 나는 밖으로 뛰어나갔다. 두호가 마당에 앉아 흙장난을 하고 있다가 내게 말했다...

«성아, 할머니 듀졌나?».

«두호는 얼굴에 온통 흙을 묻힌 채 반들거리는 눈으로 나를 쳐다봤다. 나는 더럭 무섭증이 났다. 할머니의 마지막 숨 거두는 순간의 그 무서움과는 또 다른, 살아 있는 사람의 교활한 눈에서 찾을 수 있는 그런 무서움이었던 것이다»²⁴.

«Oxir oqibat buvimlar bu sir haqida og‘iz ochmay bu dunyoni tark etdilar. To‘satdan vujudimni qorquv qamrab oldi. Buvimning so‘nggi nafas olishlari...»

«...aka, buvim o‘ydimi...».

Yuzlari loyga chaplangan Tuho chaqnagan ko‘zlari bilan menga termulib turardi. To‘satdan qo‘rqub ketdim. Bu buvimning so‘nggi nafas olishlaridagi qo‘rquvdan farq qilardi, bu hiylakor insonning ko‘zlarida ko‘rish mumkin bo‘lgan dahshat edi ».

Oila a‘zolarining ikkinchi farzand – Tuhoga bo‘lgan munosabatlari bir xil emas. Tuho o‘z-o‘zicha o‘ta murakkab va ziddiyatlarga to‘la bola. Bir tomondan, u oila quvonchi, chunki oilada o‘g‘il farzandning dunyoga kelishi uzoq kutilgan hodisa, ikkinchi tomonda esa, yaqin kishilari uni umuman tushunmaydi va hatto tushunishni ham istamaydi. Umuman olganda Tuho obrazi – oila uchun o‘ta fojiali obraz. Bola Tuho fe‘l-atvorini muallif ancha mufassal tasvirlaydi, ammo bunda u

²⁴전상국《우리들의날개》- 서울, 1979. 3 쪽.

qahranmonning xarakteri haqida kitobxon o‘zi xulosa chiqarishi lozimligiga urg‘u beradi.

«...아버지의 구두 속이나 베개 속에는 언제나 부적이 들어가 있었다. 그러한 엄마의 액막이 놀음에 훼방꾼이 하나 있었다. 여섯 살이 된 두호가 바로 훼방꾼이었다. 두호는 엄마의 그러한 액막이 짓을 몰래 숨어 보고 있다가 엄마가 자리를 뜨면 이내 달려가 소반 위에 놓인 칼을 집어 마루에 꽂는가 하면 엄마가 천장 위에 감춘 실매듭을 목에 감고 다니기가 예사였다. 아버지 구두 속 혹은 베개나 옷 속의 부적도 늘 두호의 주머니에서 나왔다. 그 일로 해서 엄마는 무섭게 화를 냈다. 두호에게 매질을 하는 엄마의 눈에서 나는 살의를 보았다. 엄마는 부들부들 치를 떨면서 사정없이 두호를 패댔다. 그러나 두호의 그런 짓곳은 버릇이 쉽게 없어지지 않았다. 그는 여전히 엄마가 하는일에 훼방을 놓았다»²⁵.

«...har doim dadamning oyoq kiyimi yoki yostiqlarining ichida falokatlardan asrovchi tumorlar bo‘lardi. Oyimning bunday ishlariga xalaqit beruvchi inson bor edi. Aynan shu ziyonkor olti yoshli Tuho edi. U oyimning bu ishlarini yashirincha kuzatar, oyim joyidan turib ketishi bilan yugurib borib xontaxta ustiga qo‘yilgan pichoqni olib yog‘och polga qadab qo‘yar, oyim uyning tepa qismiga yashirib qo‘ygan tumorlari doim Tuhoning cho‘ntagidan chiqardi. Bu ishlardan oyim qattiq darg‘azab bo‘lardi. Tuhoni savalayotgan onamning ko‘zlaridan uni o‘ldirgisi kelayotgan qahrni ko‘rardim. Lekin Tuho bunday be‘mani ishlarga osonlikcha barham bermadi. U har doimgidek oyimning ishlariga xalaqit berardi».

Hatto ba‘zan onasi Tuhoning bo‘yniga pichoq tirab, avval seni keyin o‘zimni ham o‘ldiraman, degan paytlari ham bo‘lardi. Bu ayniqsa, eri yuk mashinasini sotib olib, haydovchilik qila boshlagan vaqtda o‘sha falokat yuz berishidan ikki kun avval sodir bo‘ldi. Shu kuni onasi uzoq o‘tirib uzundan-uzun duolar o‘qidi. Shu kuni kechasi to‘satdan mushukning nolali ovozi eshitildi, tashqariga chiqqan

²⁵전상국《우리들의날개》- 서울, 1979. 4 쪽.

katta o'g'il onasini ko'rib hayratga tushdi. Onasi ham buvisiga o'xshab folbin oldiga borib kelgan kun edi. U uydagi mushukning bo'ynidan arqon o'tkazayotib nimalarnidir pichirlardi. Qandaydur sonlarni sanayotganga ham o'xshardi. So'ng onasi mushukning bo'ynini arqon bilan qattiq qilib bog'ladi. Mushuk esa tipirchilardi. Mushukni Tapshimlida yashaydigan ammaning do'konidagi mushuklar orasidan Tuho olib kelgan, u ancha semirib qolgandi. Bu Tuhoning mushugi edi. Onasi mushukni bog'lab, uyning orqa tomoniga o'tib ketdi. Uyning orqa tarafida ko'mir yig'ib qo'yiladigan ombor bor edi. Ona ko'mir omborining peshtoqisiga mushukni tomog'idan osib qo'ydi. Mushuk ovozi «meni qutqaring», deb yolvorayotganga o'xshardi. Ona mushukni o'rta qo'ydi, qirq yetti marotaba sanab mushuk atrofida aylandi. Erining yoshi qirq yettida edi. U bu vaqtda shag'al do'konida tunab, haydovchilik qilardi. Indinga eri uyga keladigan kun edi. Onasi ko'rib qolmasin, deb o'g'li ortiga qaytdi.

Bu vaqtda Tuho anbangda²⁶ uxlab yotgan edi. Akasi sekin nafas olardi, oyisining anbangga kirib ketgan oyoq tovushlarini eshitdi va uzoq davom etgan mushuk nolalaridan toliqib uxlab qoldi. Tushida ham davomiy mushuk yig'isi ovozi eshitildi. U tushidagi mushuk yig'isi ovozidan uyg'onib ketdi. Lekin mushuk ovozi allaqachon to'xtagan edi. U qo'rquvni ichiga yutib, yotoqxonadan asta – sekin chiqdi, uyning orqa tomoniga o'tdi. Oy nuri omborni yoritib turar, mushuk esa cho'zilgan holda osilib turardi. U mushuk yoniga borganida, mushuk qotib qolgan, zarracha harakat ham sezilmasdi. O'lib qolibdi..., deb o'ylab, xonadan olib kelgan piskani chiqardi, mushuk osilib turgan arqonning o'rtasidan kesdi. Va shundan keyin u o'sha joyda hayratdan cho'kkalab yerga o'tirib qoldi. Birdaniga bo'g'iq ovoz chiqarib, yerga yiqiladi, deb o'ylagan edi. Biroq o'ylaganidan farqli o'laroq hech qanday ovoz eshitilmadi. Mushuk yerga tushmadi. Yerga tushayotib birdaniga miyov – judayam uzun ovoz chiqarib ko'z o'ngidan g'oyib bo'ldi.

²⁶ Ota- ona xonasi

«누가 고양이를 살려줬니?»

아침에 엄마가 두호와 나를 불러놓고 아주 착 가라앉은 목소리로 물었다. 엄마의 얼굴은 차고 매서웠다. 눈에 팔팔 살기 같은 게 날렸다. 두호가 코를 훌쩍 들이마시며 내 얼굴을 쳐다봤다. 나는 두호의 얼굴을 마주볼 수가 없어 얼른 시선을 다른 데로 돌려버렸다.

«한호야, 니가 그랬니?» 엄마의 목소리는 칼날처럼 찔었다. 나는 부르르 몸서릴 찔었다.

«내가 뭘 그랬단 말예요?» 나는 짐짓 통명스럽게 말했다.

«그럼, 이번에도 또 니가 그랬구나?» 엄마가 두호의 멍살을 잡았다. 두호가 멍살을 잡힌 채 엄마의 얼굴을 그 큰 눈으로 뻘뻘 쳐다보며, '그거 내 고양이인데...'. 멍살을 죄인 채 불분명한 발음으로 입엿소릴 하다가 내 쪽으로 힐끗 눈을 주었다. 나는 흠칫 몸을 떨었다.

«요 망할 놈의 새끼!». 엄마가 두호의 멍살을 더 다부지게 추켜들었다.

«너 죽고 나 죽자!».²⁷

«*Kim mushukni qutqardi?*».

Ertalab oyim men va Tuhoni chaqirib juda ham qo'rqinchli ovoz bilan so'radilar. Oyimning aftlari juda ham sovuq va nafratli edi. Ko'zlaridan yovuz uchqun sachrab ketdi. Tuho burnini tortib menga qaradi. Men Tuhoning yuziga qaray olmay darhol ko'zimni boshqa tomonga olib qochdim.

«*Hanho, sen qildingmi?*», oyimning ovozlari pichoqdek keskir edi. Men seskanib ketdim.

«*Men nima qilibman?*», ataylab dag'dag'a bilan javob berdim.

«*Unday bo'lsa bu safar ham demak sen ekansanda?!*», oyim Tuhoning yoqasidan oldi. Tuho esa ortga tisarilib, ko'zlarini katta katta ochdi «...bu mening mushugim bo'lsa...». Tomog'i bo'g'ilib, tushunarsiz ovoz bilan men tomonga xiyol o'girilib qaradi. Men cho'chib ketib yuzimni teskari o'girdim.

«*Juvonmarg bo'lgur!*», oyim Tuhoning tomog'ini yana ham kuchli siqib uni ko'tardi²⁸.

²⁷ 전상국 «우리들의날개» - 서울, 1979. 11 쪽.

«Sen ham o‘lib, men ham o‘lay!», oyisi Tuhoni oshxonagacha sudrab olib bordi, pichoqni topib Tuhoning bo‘yniga tiradi. Tuho oyisiga o‘zini topshirib, ko‘zlarini yumib oldi. Oyisi Tuhoning tomg‘idan qo‘llarini bo‘shatib uni orqaga otib yubordi. Tuho oshxonaning sement poliga dumalab tushib, boshi zina qirrasiga qattiq urildi. Avval bir qancha vaqtgacha Tuho yig‘lamadi. Oyisi qattiq silkitsa ham faqatgina ozgina xo‘mrayib qaradi, ammo ovoz shiqarmadi. Lekin biroz vaqt o‘tgach Tuho juda ham kuchsiz ovozda xiqillab yig‘lay boshladi. Bu xuddi suv va havoga mujtoj bo‘lgan mushuk ovozi kabi edi. Tuho kunduzi qayd qildi. Va boshim og‘riyapdi, deb yotganicha o‘rnidan turmadi. Va nihoyat oyisi Tuhoni quchoblab yaqin kasalxonaga olib ketdi. Kasalxonada tibbiy ko‘rikdan o‘tishni tavsiya qilishdi. Poliklinikada allaqachon ko‘rik vaqti tugagan edi.

«다음 날 오전 수업중인데 담임이 나를 불러냈다. 집에 빨리 가보란 얘기였다. 엄마가 나를 기다리고 있었다. 두호는 일어나 앉아 장난감을 가지고 놀고 있었다. 나는 숨을 내쉬었다.

«뭐야 엄마, 엄마가 학교에 전화한 거야?».

엄마가 나들이 옷을 챙겨 입고 나서며 말했다.

«두호하고 집 좀 보고 있거라. 아버지가 다치셨단다».

엄마 눈에 주렁주렁 눈물이었다»²⁹.

«Ertasi kuni kunduzi dars paytida sinf rahbari meni chaqirdi. Uyimga tez borishim kerakligini aytdi. Uyga borsam oyim meni kutayotgan ekan. Tuho o‘rnidan turib o‘yinchog‘ini o‘ynab o‘tirardi. Men chuqur nafas oldim.

«Oyi, nima, maktabga qo‘ng‘iroq qildingizmi?».

Oyim ko‘chalik ko‘ylagini kiyib chiqib:

«Tuho bilan birga uyga qarab o‘tirib tur. Dadang jarohat olibdi».

²⁸ Ўша ерда.

²⁹ 전상국 «우리들의날개» - 서울, 1979. 12 쪽.

Oyimning ko‘zlari to‘la yosh edi...».

Eri haydayotgan yuk mashinasi bir odamni turtib yuborib, tik qiyalikdan ag‘darilib ketibdi. Erining peshanasiga old oynaning kichik bir singan qismi tegib tilingan joyi soppa sog‘ edi. Muammo eri turtib yuborgan odamda edi. Butunlay sog‘ ayib ketishi uchun olti oy davomida kasalxonada yotishi kerak ekan. Butunlay sog‘ ayib ketgani bilan baxtga qarshi bir oyog‘ini kesishga to‘g‘ri keldi. Kelasi kuni tan jarohati olgan odamning oila a‘zolari uyga yopirilib kelishdi, janjal ko‘tarishdi. Er kasalxonada, oyisi esa qochib ulgurdi. Ammo bu vajlarning barchasi muammoning yechimi bo‘la olmadi. Onasi agarda Tuho mushukni yechib yubormaganida bu falokat yuz bermas edi, deb o‘ylardi. Lekin shunga qaramay u erini o‘limdan asrab qolganiga ishonardi. Folbinning so‘zlari yana o‘z tasdig‘ini topdi.

Shundan so‘ng oilada Tuhoga hech kim e‘tibor bermay qo‘ydi. Muallif mazkur holatni ortiqcha detallarsiz tasvirlaydi:

«물론 두호는 그날 부엌 바닥에 머리를 부딪친 뒤 몇 번 토하고 머리통을 감싸며 꼭 죽은 것처럼 누워 있더니 아버지가 사고를 낸 그 경황 속에서 우리 식구들의 관심 밖으로 밀려나 버렸던 것이다. 더 큰 탈이 생기지 않은 것만 해도 다행이었다. 물론 아버지는 두호가 그렇게 머리를 다쳤다는 얘기를 엄마한테 들어서 알고 있었다. 그러나 셋방 구석에서 아버지는 바보처럼 멍청한 눈으로 집안 식구 누구의 일에도 관심을 갖지 않는 것 같았다»³⁰.

«Shak – shubhasiz Tuho o‘sha kuni oshxonada qattiq lat yeganidan so‘ng bir qancha marotaba qayd qildi, boshini quchoqlab xuddi o‘ladigandek yotib olardi, ammo dadam uchragan falokat oldida bunga hech kim e‘tibor bermasdi. Ahvol bundan ham yomon bo‘lishi mumkin edi deb, shukr qilardilar. Albatta, dadam Tuho boshidan zarba yeganligi haqida oyimdan eshitgan edilar. Biroq

³⁰전상국《우리들의날개》- 서울, 1979. 13 쪽.

dadam oila a'zolariga u kim bo'lishidan qat'iy nazar hammaga befahm nazar bilan qarar va xona burchagida telba kabi o'tirardi».

Kitobxon ko'z o'ngida beixtiyor bolalarga xos ko'zlari g'amgin, oriq, rangi za'faron bolakayni tasavvur qiladi. Oilada sevimli o'g'il farzand sifatida o'z o'rnini topmagan Tuho hovlida yolg'iz o'zi qum o'ynab o'tirishdan boshqa iloji yo'q edi. Bu bilan u o'zligini, o'zining ruhiy holatini va o'zini qurshagan muhitga munosabatini aks ettirardi.

«운전대를 잡지 못한 아버지는 송장과 다름없어 보였다. 내 학교 성적이 급격하게 떨어져도 별 관심이 없었으며 두호가 얼굴에 핏기를 잃은 채 뺨뺨 말라가고 있어도 매한가지였다.

나는 밤마다 꿈에 고양이를 보았다. 고양이 목에 노끈이 칭칭 감겨 있었다. 나는 고양이 목에서 그 노끈을 풀어내고 싶었다. 숨이 답답하고 오줌이 마려워 견딜 수가 없었다. 그러나 고양이는 좀체 잡히지 않았다. 겨우겨우 잡았다고 생각하면 그것은 예외 없이 두호였다. 나는 늘 두호의 목을 다잡아 쥔 채 눈을 뜨곤 했다. 눈을 뜨고도 나는 한참씩 고양이와 두호를 혼동하고 있었다»³¹.

«Chambarakni ushlay olmayotgan dadamning murdadan farqi yoq edi. Mening maktabdagi baholarim zimdan tushib ketsa-da, Tuhoning yuzidan qon ketib, qiltillab qolgan bo'lsa ham dadamga buning zarracha ahamiyati yo'q edi.

Men har tunda tushimda mushukni ko'rar edim. Mushuk bo'g'ziga arqon qat-qat qilib o'ralgan edi. Men mushuk bo'g'zidagi arqonni yechib qo'ygim keldi. Nafasim qisilib, tashqariga chiqqim kelib, chiday olmadim. Lekin mushuk osonlikcha tutqich bermasdi. Arang tutib oldim, deb o'ylaganimda bu shaksiz Tuho bo'lar edi. Men doim Tuhoning bo'ynidan bo'g'izlagan holda uyg'onib ketardim. Ko'zimni ochsam ham bir lahzaga mushuk yoki Tuhoni adashtirar edim».

³¹전상국《우리들의날개》- 서울, 1979. 13 쪽.

Ona va o'g'il o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik Hanhoni ham chetlab o'tmadi. Umr bo'yi faqat folbin gaplariga amal qilib yashagan avval buvisi, keyin onasining bunday xatti-harakatlari Hanhoning osoyishta hayotini ag'dar-to'ntar qilib yubordi, oilada bo'lib o'tgan ko'ngilsiz voqealarda Tuhoni ayblashlar esa haqiqiy fojiaga aylandi. Hanhoning ko'z o'ngida oilasigina emas, balki uni qurshagan dunyo ham o'zgardi: oldingi to'kis hayot o'rniga avloddan avlodda o'tib kelayotgan dehqonchilik yerlari sotib yuborildi, natijada ijarada yashay boshlashdi, shomonlik xalq hayotining asosiga aylandi. Avvallari buvisining folbinga qatnashiga befarq onasi endi o'zi ham folbinni qidirib hatto Seulgacha borib keldi. Irim-sirimlarga ishonib o'z farzandini nogiron qildi.

Avval ayoli bilan bemaslahat ish ko'rgan otasi ham endi onasining irim-sirimlariga, folbinga qatnashlariga ishona boshladi. Hanho esa, onasining kechinmalari va ukasining boshdan kechirayotgan iztiroblarining soqov guvohi sifatida emas, beixtiyor bundan keyingi barcha voqealar ishtirokchisiga aylandi.

«우리는 뛰다시피 산으로 오르기 시작했다. 산의 큰길을 버리고 우정 샛길을 찾아 숲이 무성한 산속으로 들었다. 후둑후둑, 산새가 자리를 바꿔 앉느라 부산할 뿐 등산객들이 다 하산한 밤의 산속은 죽음처럼 조용했다.

«혀영».

두호가 내 뒤에서 혈떡이고 있었다.

«조금만 더 올라가면 돼!»

나는 걸음을 늦추지 않았다. 생각보다 두호의 걸음은 빨랐다. 내가 아무리 빨리 걸어도 두호는 내 뒤에서 혁혁 숨을 몰아쉬고 있었다. 그러나 나는 계속 걸음을 빨리했다.

«형아, 같이 가자».

드디어 두호가 울음 섞어 질러댔다. 산속의 그 휘휘한 밤공기가 우리들의 발소리에 의해 조금씩 흔들리고 있었다. 발 끝에 채인 돌이 비탈을 굴러내렸다. 그럴 때마다 나는 온몸에 소름이 끼치도록 무서웠다.

«귀신이닷 귀신!».³²

«Biz yugurib toqqa ko'tarilishni boshladik. Tog'ning keng yo'lidan emas, judayam tor yo'llarini topib, daraxtlari ko'p o'rmonli tog' tomon qarab yurdik. Tog'dan har xil ovozlar eshitilar, qushlar joylarini almashtirish bilan band, toqqa safar qilgan yo'lovchilar uylariga qaytgan, tun, tog' ichkarisi o'lik kabi sukunatda.

- *Aka!*

Tuho mening orqamda hansirab nafas olardi.

- *Yana ozgina ko'tarilsak, bo'ldi!*

Men qadamimni sekinlatganim yo'q. O'ylaganimdan ko'ra Tuhoning qadam olishi tez edi. Men qanchalik tez yurmay, Tuho mening orqamdan hansirab kelayotgan edi. Biroq men tez-tez yurishda davom etdim.

- *Aka, birga yuraylik.*

Va nihoyat, Tuho yig'lay boshladi. Tog' ichidagi qop-qorongi tun havosi, bizning oyoq tovushlarimizga qarab o'rmon ichi ko'z oldimizda jonlangandek tuyulardi. Oyoq tagida turtilib ketgan tosh qiyalik bo'ylab dumalab ketdi. Har safar bu hol yuz berganda butun badanim junjikib, qo'rqardim.

«Ana, arvoh, arvoh!».

Oilaning ikkinchi farzandi Tuho ona va katta o'g'il o'rtasidagi ma'naviy qarama-qarshilik bilan bog'liq konfliktni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Ularning har ikkisi ham yaqin bo'lgan, ammo betaraf inson sifatida, u o'z onasi va akasi o'rtasidagi muvozanat timsolidir.

«나는 밤마다 꿈에 고양이를 보았다. 고양이 목에 노끈이 칭칭 감겨 있었다. 나는 고양이를 목에서 그 노끈을 풀어내고 싶었다. 숨이 답답하고 오줌이 마려워 견딜 수가 없었다. 그러나 고양이는 좀체 잡히지 않았다. 겨우겨우 잡았다고 생각하면 그것은 예외

³²전상국 «우리들의날개» - 서울, 1979. 14 쪽.

없이 두호였다. 나는 늘 두호의 목을 다잡아 쥔 채 눈을 뜨곤 했다. 눈을 뜨고도 나는 한참씩 고양이와 두호를 혼동하고 있었다.

«엄마, 두호 병원에 좀 데리고 가봐요».

나는 어느 날 엄마한테 말했다. 엄마가 행상을 쉬고 집에서 목은 빨래를 하는 날이었다. 아버지는 밖에 나가고 없었다.

«두호가 왜?».

두호에 대한 내 경고를 무시한 채 엄마는 여전히 보따리 장사에만 신경을 쏟았다. 입에 풀칠하는 것, 그것 이상의 중요한 일이 있을 수 없었다. 아버지는 여전히 폐인이었다. 나는 이해할 수가 없었다. 아버지를 이처럼 낭패의 늪으로 떨어뜨린 그 힘은 무엇일까. 아버지는 그날 사고 당시의 정황 같은 걸 한번도 얘기하지 않았다. 아버지가 군대 수송 중대에 있었던 그 당시 선임하사를 죽이던 그날의 정황을 얘기하듯 아버지의 입을 통해서 나올 법한 얘기가 예상 외로 단 한마디도 나오지 않았기 때문에 나는 실망하고 있었다»³³.

«Men har tunda tushimda mushukni ko‘rar edim. Mushuk bo‘g‘ziga arqon qat-qat qilib o‘ralgan edi. Men mushuk bo‘g‘zidagi arqonni yechib qo‘ygim keldi. Nafasim qisilib, tashqariga chiqqim kelib, chiday olmadim. Lekin mushuk osonlikcha tutqich bermasdi. Arang tutib oldim, deb o‘ylaganimda bu shaksiz Tuho bo‘lar edi. Men doim Tuhoning bo‘ynidan bo‘g‘izlagan holda uyg‘onib ketardim. Ko‘zimni ochsam ham bir lahzaga mushuk yoki Tuhoni adashtirar edim.

«Oyi, Tuhoni kasalxonaga oborib ko‘ring».

Kunlarning birida oyimga gapirdim. Dam olish kuni bo‘lib, oyim uyda to‘plangan kirlarni yuvadigan kuni edi. Dadam tashqarida edi.

«Tuhoni, nega?»

Oyim hovlining bir burchagida qum o‘ynab o‘tirgan Tuhoga zumdan nazar tashladi-da, so‘radi. Lekin men javob bermadim. Men anchadan beri Tuhoning normal holatda o‘smayotganligini bilardim. Qon yoq gezarib ketgan yuzi, sekin – asta kattalashib borayotgan ko‘zi, to‘xtovsiz harakatlanayotgan ko‘z qorachig‘...

³³전상국《우리들의날개》- 서울, 1979. 12 쪽.

va haddan tashqari ozib faqat suyaklari qolgan Tuho. Yanayam ayanchli holat kun davomida churq etib ovoz chiqarmasdi».

Eski va yangi dinlar, an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyatlar aynan shu talqinda, mazkur qarama-qarshilik natijasida ularning tomonlariga yaqin inson arosatda qolgan bir vaziyatda yanada teran mazmun kasb etadi³⁴.

Tuho uy egasining bolalari bilan umuman birga o'ynamasdi. Har doim yolg'iz o'zi hovlining bir chetida qum o'ynardi. Qo'li bilan yer kovlar va o'sha yerga hojat qilardi. Ba'zida axlatini ham qum bilan yopib qoyar edi. Uy bekasi ijarg'anar, ammo Tuhoning uyda kun bo'yi qiladigan ishi faqat mana shulardan iborat edi.

Tuho haqidagi katta o'g'ilning ogohlantirishlariga qaramay, onasi e'tiborsiz holda o'zining barcha diqqatini bozor ishlariga qaratar edi. Qorin to'yg'azish g'amidan bo'lak muhimroq ish bo'lishi mumkin emas edi. Dadasi avvalgidek qo'lidan hech bir ish kelmaydigan keraksiz odam edi. U tushuna olmas edi. Dadasini bu kabi mag'lubiyat girdobiga tortgan narsa nima ekan? Dadasi o'sha kungi avto falokat vaqtidagi hodisa haqida biror marotaba ham gapirmadi. U rota serjantni bilan bo'lib o'tgan o'sha voqealar tafsilotini gapirib bergan edi. Bu safar o'sha voqeadan farqli ravishda dadasining og'zidan tayinli bir so'z chiqmasdi, bu esa uni xavotirga solardi.

³⁴ Пак И.Л. Женские образы в рассказе Ким Донни «Картина шаманки». – Т., 2011. – 113-114-б.

XULOSA VA TAKLIFLAR

XX asrning ikkinchi yarmi Koreya yarimoroli uchun ancha og'ir davr bo'ldi. Davlatning rivojlanish jarayonidagi bo'hronlar XX asr ikkinchi yarmi adabiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Bu davrda koreys adabiyotida jamiyat hayoti, odamlarning iztiroblari va orzu-umidlari ayniqsa teran tasvirlangan. Yozuvchilar va shoirlar asosiy e'tiborni qahramonlarning ruhiy holatiga qaratdilar, ularning ijodida inson o'z qilmishlarini anglab yetishi, uning yetukligi darajasini tadqiq etish birinchi o'ringa chiqqan. Chon San Guk ayni shu og'ir davrda yashab ijod qilgan.

1. Chon San Guk o'z asarlarini mafkuraviy moyilliklardan xalos qilishga uringan ilk yozuvchilardan biridir. Hayotiy tajriba Chon San Guk yozuvchilik mahoratining shakllanish manbasiga aylangan. Chon San Guk asarlarida chuqur falsafiy muammolar ko'tariladi va muallif ularning o'z yechimini taklif qiladi. Chon San Guk asari qahramonlar fe'l-atvori va ruhiyatining teran tasviri, tasvirlanayotgan vaziyatlarning murakkabligi bilan tavsiflanadi, unda o'ziga xos sir, jumboq, mubolag'a, oldindan aytib bo'lmaydigan marra mavjud.

2. Yozuvchining ijodiy merosi ko'p sonli mavzular va muammolarni qamrab oladi, ammo uning asarlarida ma'naviy izlanishlar va hayot mazmuni muammosi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. «Bizning qanot» («우리들의 날개») romanida Chon San Guk ancha dolzarb falsafiy mavzularni ko'taradi. Faol rivojlanayotgan avlodlar o'rtasidagi konflikt fonida asar muallifi inson hayotida ichki uyg'unlikni qaror toptirish, o'zlikni anglash va o'z hayoti yo'lini to'g'ri tanlash qay darajada muhim ekanligini ko'rsatib beradi.

3. Chon San Guk diqqat markazida murakkab taqdirli qahramonlar turadi. Bu taqdirda o'zgarishlar yasashning iloji yo'q, chunki hayot allaqachon o'tib ketgan. Asar qahramonlari teng darajada zarur, ammo bir-birini istisno etadigan hayot qadriyatlarini tanlash vaziyatida qoladilar, ruhiy uyg'unlikka erisha

olmaydilar. Bu «Bizning qanot» («우리들의 날개») romanining asosiy muammosiga aylandi.

4. Chon San Guk o'z asarlarida ko'tarilgan mavzular va falsafiy muammolar Koreya madaniyati va adabiyotiga qiziquvchilar uchun ham qimmatli manba bo'la oladi. Ayni shu sababli biz bugungi kunda Chon San Guk ijodiy merosini o'rganish maqsadga muvofiq va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

5. Asarning «Bizning qanot» («우리들의 날개») deb nomlanishida xalqning ko'p asrlik qarashlari, koreys xalqining qadimgi diniy e'tiqodlaridan biri – shomonizm bilan bog'liq ma'no mujassamlashgan. Shu bilan bir vaqtda, bu nom asarning g'oyaviy mazmunini, asarning bosh qahramonining o'ziga xos xususiyatlarini jamuljam holda aks ettiradi.

6. Shomon yoki koreyschasiga *mudan* – ruhlar bilan udumlarni amalga oshiruvchi marosimlarni o'tkazish uchun xizmat qilgan, ya'ni tiriklar va o'liklar dunyosi o'rtasida vositachi bo'lgan. Odamlar shomon baxtsizlikni haydaydi, kasallarni davolaydi, boqiy dunyodan foniy dunyoga baxayr ketishni ta'minlaydi, tiriklar va o'liklar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan munozara va ixtiloflarni hal qiladi, deb ishonishgan. Koreyada shomonlik har bir narsa paydo bo'lishi va tabiatni qurshagan predmetlar, xususan, tosh va daraxtlar, tog' va suv oqimi, samoviy jismlar, minglab ruh va jinlarga ta'zim qilishgan.

7. Shomonlar haqida dastlabki ma'lumotlar Silla davri Vanxo qirolligiga borib taqaladi. Kim Busikning «Samguk sagi» va Kim Iryonning «Samguk yusa» asarlarida shomonlik haqida oz bo'lsa-da ma'lumotlar uchraydi.

8. Qadimgi Koreyada shomonlik qo'rquv va irim-sirim dini hisoblangan, ammo zamonaviy avlod vakillari uchun shomonlik go'zal va badiiy milliy madaniyat elementi bo'lib qoladi. Shomonlik odatlari musiqali teatr namoyishlari va marosim raqslari elementlariga ega bo'lib, yovuz ruhlarni haydashda foydalanilgan. Daosizm, konfutsiychilik va buddizm kabi diniy-falsafiy ta'limotlar keng tarqalsa-da, xalq shomonlik e'tiqod va odatlardan voz kechmadi. Aksincha bu

diniy-falsafiy ta'limotlar shomonlikka xos ba'zi bir elementlarni o'zlashtirdi va tinch-osuda mavjud bo'lishda davom etdi. Shomonlik koreys xalqining yashirin dini va madaniyatining muhim aspekti bo'lib qoldi.

9. Romanda xalq urf-odat va marosimlari o'z aksini topgan: uy ruhlarini o'ziga xos ovqatlantirish udumi; alohida hurmatga sazovor ruhlar: ajdodlar ruhi «조왕신» («Chovansin»); bo'lajak chaqaloq himoyachisi «삼신할머니» («Samsin xalmoni») – Samsin momo; tug'ruqni qabul qilish; bola tug'ilishi bilan birinchi navbatda uning kindigini bog'lash va uni saqlash; bola dunyoga kelgach, uyning darvozasiga qamishdan to'qilgan arqon «금줄» («kimchjul») osib qo'yilishi; yangi tug'ilgan chaqaloqqa kiyim kiydirish odati va h.z.

10. Roman qahramoni buvi obrazidan bir qarashda ancha salbiy taassurot paydo bo'lsa-da, keyinchalik bu obraz yanada yumshoq, g'amgin va fojiaiy xususiyat kasb etadi. Zero, bu ayolda bir vaqtning o'zida kuchli iroda, fe'l-atvor, o'z farzandlariga muhabbat shu bilan birga boshqa xususiyat – o'jarlik, jizzakilik, telba-teskarilik, murosasizlikni ham qayd etib o'tish lozim.

11. Hanhoning dadasiga bo'lgan ishonchi so'ndi. U dadasini uyning burchak burchagida izg'ib yurgan shomonlardan farqli, deb o'ylar edi. Nimaligini aniq bilmasa-da, dadasi uydagi notinchlik va tushunarsiz kuch bilan oxirigacha kurasha oladi, deb umid qilgan edi.

12. Ona va o'g'il o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik Hanhoni ham chetlab o'tmadi. Umr bo'yi faqat folbin gaplariga amal qilib yashagan avval buvisi, keyin onasining bunday xatti-harakatlari Hanhoning osoyishta hayotini ag'dar-to'ntar qilib yubordi, oilada bo'lib o'tgan ko'ngilsiz voqealarda Tuhoni ayblashlar esa haqiqiy fojiaga aylandi. Hanhoning ko'z o'ngida oilasigina emas, balki uni qurshagan dunyo ham o'zgardi: oldingi to'kis hayot o'rniga avloddan avlodda o'tib kelayotgan dehqonchilik yerlari sotib yuborildi, natijada ijarada yashay boshlashdi, shomonlik xalq hayotining asosiga aylandi. Avvallari buvisining folbinga

qatnashiga befarq onasi endi o‘zi ham folbinni qidirib hatto Seulgacha borib keldi. Irim-sirimlarga ishonib o‘z farzandini nogiron qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

II. Darslik, o‘quv qo‘llanma va boshqa asarlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., 2002.
2. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.:Высшая школа, 1989.
3. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М., 2000.
4. Ким В.Н. Наследие художественной культуры Востока и его место в формировании драматургии. Т., 2000.
5. Kim V.N. Koreya madaniyati va san’ati. Т., 2018
6. Хан V.S. Koreya tarixi. – Т., 2013.
7. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Т.: O‘qituvchi, 1983.
8. Koreys adabiyotidan tanlangan asarlar. – Seul: Think-book, 2015.
9. Qurunov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Т., 2010.
11. Пак И.Л. Женские образы в рассказе Ким Донни «Картина шаманки». –Т., 2001.
12. Солдатова М.В., Пак К.А. Современная литература Кореи. – Владивосток, 2003.
13. Солдатова М.В. Становление национальной прозы в Корее первой четверти XX века // Дис. ... канд. филол. наук. – Владивосток: ДГУ, 2004.

14. Saydazimova U. Chon Sang Gukning Butning ko‘z yoshi asarida ijtimoiy hayotning ta’lim-tarbiyaga ta’siri masalalari. Корееведение Узбекистана. – Т.: Istiqlol, 2017.
15. Qutbiddinova M. Bizning qanot. Корееведение Узбекистана. – Т.: Istiqlol, 2017.
16. Цой И.В. Корейская проза 1920–1930 гг.– СПб., 2003.
17. Чо Дониль. Общая история корейской литературы. – С., 1989.

III. Xorijiy adabiyotlar:

Koreys tilida:

18. 전상국«우리들의 날개»- 서울, 1979.
19. 장석주. 20 세기 한국문학의 탐험. – 서울.: // 시공사, 2007.
20. 조동일. 한국문학통사. – 서울.: // 지식산업사, 1989.
21. 이정숙. 한국현대소설연구. – 서울.: // 깊은샘, 1999.

Ingliz tilida:

22. Kim Yoon-shik. Understanding Modern Korean Literature. – Seoul, 1998.
23. Kim Hung Guy, translated by J.Fouser. Understanding Korean Literature. – USA, 1997.
24. Modern Korean Literature, Jimoondang. – Seoul, 1998.

IV. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari:

25. 김동환. 1960 년대 모더니즘 소설에 나타난 주체의 현실 대응 양상: 최인훈의 «광장»을 중심으로. – 서울: 국내석사, 2009.
26. 한미숙. 한국과 독일의 분단문학 비교 : 크리스타 볼프의 «나누어진 하늘과» 최인훈의 «광장»을 중심으로. – 서울: 국내석사, 이화여자대학교 대학원, 2003.

V. Lug‘atlar:

27. Когай. Ю. Корейско-русский словарь. – Астана, 2010.

28. 국어사전. – 서울, 1995.

29. 한려 사전. – 서울, 1997.

VI. Internet saytlari:

30. www.google.ru

31. www.naver.com

32. www.wikipedia.co.kr